



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"

BANK BOSHQARUVI QARORI

№ 163

2025 yil «24» «mart»

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida kredit ta‘minoti bilan ishlash Tartibini yangi tahrirda tasdiqlash to‘g‘risida

Amaldagi “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida kredit ta‘minoti bilan ishlash Tartibi Bank boshqaruvining 2023-yil 10-iyuldagi 138-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirishda yuzaga kelayotgan noaniqliklarni bartaraf etish, mazkur Tartibdagi qoidalarni Bankning boshqa hujjatlarida keltirilgan qoidalariga mutanosib o‘zgartirish hamda mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida ushbu ichki hujjatni yangi tahrirda ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelgan.

Shunga ko‘ra, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida kredit ta‘minoti bilan ishlash Tartibidagi qoidalarni Bankning boshqa hujjatlarida keltirilgan qoidalariga muvofiqlashtirish maqsadida Kreditlarni ma‘qullash departamenti tomonidan tegishli tarkibiy bo‘linmalar bilan kelishilgan holda ushbu Tartib yangi tahrirda ishlab chiqilib, Bank boshqaruvi muhokamasiga kiritilgan.

Bank boshqaruvi to‘g‘risidagi nizomning 22-bandiga asosan Bankning ichki hujjatlarini tasdiqlash, ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish Bank boshqaruvi vakolatiga kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bank boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida kredit ta‘minoti bilan ishlash Tartibi yangi tahrirda ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Kreditlarni ma‘qullash departamenti (S.Sanjarov) mazkur Tartib tasdiqlangandan so‘ng:

bir kunlik muddat ichida hujjat (asli)ni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun Yuridik departament Korporativ va ichki hujjatlar ekspertizasi xizmatiga taqdim etilishini;

ro'yxatdan o'tkazilgan hujjat nusxasini ishda foydalanish va unga qat'iy rioya qilish uchun Bankning barcha tarkibiy bo'linmalariga yetkazilishini hamda o'quv seminarlari o'tkazilishini ta'minlasin.

3. Yuridik departament Korporativ va ichki hujjatlar ekspertizasi xizmati (D.Mamadaliyev) mas'ul tarkibiy bo'linma tomonidan taqdim etilgan mazkur Tartibni ro'yxatdan o'tkazilishini va nusxasini qonunchilikda belgilangan muddatda Markaziy bankka yuborilishini ta'minlasin.

4. Mazkur Tartib tasdiqlanishi munosabati bilan Bank boshqaruvining 2023-yil 10-iyuldagi 138-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida kredit ta'minoti bilan ishlash Tartibi va unga kiritilgan o'zgartirishlar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Bank boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari A.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv Raisi	IMZOLANGAN	A.Akbarjonov
Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari	IMZOLANGAN	A.Ergashev
Boshqaruv Raisi o'rinbosari	IMZOLANGAN	Sh.Yakubov
Boshqaruv Raisi o'rinbosari	IMZOLANGAN	Sh.Yusupov
Boshqaruv Raisi o'rinbosari	IMZOLANGAN	D.Umarov
Boshqaruv Raisi o'rinbosari	IMZOLANGAN	S.Abduvaliyev
Risk bosh direktori	IMZOLANGAN	S.Ismagilov
Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti Departament direktori	IMZOLANGAN	A.Xujamuratov

Kiritildi:

Kreditlarni ma'qullash departamenti Departament direktori	IMZOLANGAN	S.Sanjarov
--	-------------------	------------

Kelishuvchilar:

Yuridik departament Departament direktori o'rinbosari	KELISHILDI	Maksudov J
--	-------------------	------------



<https://hujjat.sqb.uz/?pin=KL94wW79&id=f34fbcc8-154e-4e37-9cab-cf28c32f13b3>

Yuridik departamenti
Korporativ va ichki hujjatlar
ekspertizasi xizmatida
2025 yil “25” mart da
640 - son bilan
“RO‘YXATGA OLINGAN”



O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Bank Boshqaruvining
2025 yil “25” mart dagi
640 sonli qaroriga

ILOVA

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida kredit ta‘minoti bilan ishlash tartibi
(Yangi tahrir)

Mazkur Tartibi O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Garov reyestri to‘g‘risida”gi Qonunlari “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami: 916, 2000-yil 5-aprel) va “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning ichki hujjatlarini tayyorlash va qabul qilish Tartibi” (ichki ro‘yxat raqami: 638, 2025-yil 21-fevral) hamda boshqa ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qodidalar

1. Ushbu Tartib “O‘zsanoatqurilishbank” ATB (keying o‘rinlarda – Bank) tizimida kreditlash xizmatining ta‘minotiga qo‘yiladigan talablar va ularni rasmiylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni tartibga soladi.

2. Tartibning asosiy maqsadi Bank tizimida kreditlash xizmatlarining ta‘minoti sifatida likvidli ta‘minotlar olinishini ta‘minlash, ta‘minotlarni rasmiylashtirish jarayonida tarkibiy bo‘linmalarining vazifalarini taqsimlash orqali ularni rasmiylashtirishni optimallashtirishdan iborat.

3. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Kreditlash va unga tenglashtirilgan operatsiyalar (keyingi o‘rinlarda - kreditlash xizmati) – Bank mijozlariga kredit, faktoring/xalqaro faktoring, lizing, va kafolatlar berish bilan bog‘liq amaliyotlar;

majburiyat bajarilishi ta‘minotlari – garov/ipoteka, kafillik, kafolat, sug‘urta polisi;

garov/ipoteka – bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo‘lgan huquqni majburiyatlarni ta‘minlash uchun berishi;

qarz oluvchi – kreditlash xizmati ko‘rsatilishini so‘rab Bankka murojaat qilgan yuridik/jismoniy va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan shaxs;

qarzdor – kreditlash xizmati ko‘rsatilgan va bugungi kunda Bank oldida qarzdorligi mavjud bo‘lgan yuridik/jismoniy va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan shaxs;

garovga qo'yuvchi – ashyoning (ko'char, ko'chmas mol-mulk) mulkdori yoki garovga qo'yiladigan huquqning egasi bo'lgan shaxs. Qarz oluvchining o'zi ham uchinchi shaxs ham garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin;

garovga oluvchi – Bank va uning hududlardagi bank xizmatlari ofislari va markazlari (*keyingi o'rinlarda – Bank tarmoqlari*);

garov/ipoteka shartnomasi – mol-mulk obyekti kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yish bo'yicha tomonlar o'rtasida imzolananadigan, kredit shartnomasiga asosan qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchilarning Bank oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan bitim;

kafil – qarz oluvchining o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga olgan yuridik/jismoniy va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan shaxslar;

kafillik shartnomasi – kafil qarz oluvchining o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun Bank oldida javob berishni o'z zimmasiga olganligini tasdiqlovchi bitim;

baholovchi tashkilot – baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxs;

qo'shimcha ta'minot – qarz oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarmaslik riskini kamaytirish maqsadida, mavjud ta'minotning 125% (*130% Bankka aloqador shaxslarga*) dan ortiq qismi;

navbatdagi garov – garovda turgan mol-mulkni garovga qo'yuvchi tomonidan o'zga shaxsga (*garovga oluvchiga*) boshqa majburiyatni ta'minlash uchun berish;

ko'chmas mulk obyekti – binolar, inshootlar, ko'p qavatli uylardagi kvartiralar, korxonalar, boshqa mulkiy majmualar, yuridik va jismoniy shaxslar mulki bo'lgan savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari, shuningdek turar joylar ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga;

noturar joy – yashash uchun mo'ljallanmagan binolar, inshootlar, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari va mulkiy majmualar;

turar joy – ko'p qavatli uylardagi kvartiralar, xonadonlar ya'ni kadastr hujjatlariga asosan yashash uchun mo'ljallangan ko'chmas mulk;

qurilishi tugallanmagan ko'chmas mulk obyekti – qurilish montaj ishlari davom etayotgan (*yoki to'xtab qolgan*) va qurilish-montaj ishlari tugallangan ob'ektdan foydalanish bo'yicha tegishli ruxsatnoma olinmagan, mulkka egalik qilish bo'yicha taqdim etilgan kadastr hujjatiga asosan qurilishi tugallanmagan deb e'tirof etilgan, mulkning konstruksiya qismi qurilish ishlari yakuniga yetmagan (*tom qismi yopilmagan*) bino va inshootlar;

ko'p qavatli uy – ko'p qavatli uyga tutash yer uchastkasiga yoxud bunday uydagi umumiy foydalaniladigan joylarga mustaqil chiqish yo'laklariga ega bo'lgan ikki va undan ortiq qavatlar majmuidir. Ko'p qavatli uy ulushli mulk huquqi asosida joylarning mulkdorlariga tegishli bo'lgan umumiy mulk (*keyingi o'rinlarda umumiy mol-mulk*) elementlarini o'z ichiga oladi;

savdo kompleksi – chakana savdo va xizmatlar ko'rsatish sohasining turg'un obyektlari joylashgan yagona yer uchastkasida qurilgan bino va/yoki inshootlar;

garovga qo'yilayotgan mulklar bahosini kelishish dalolatnomasi – Garovga taqdim etilayotgan ko'char/ko'chmas mulklarni joyiga chiqqan holda ko'rib (Bank mahsulotlarini boshqarish

katta qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan kredit mahsulotlarida istisno qilingan holatlar bundan mustasno), o'rganish natijalariga ko'ra garov qiymatini mazkur Tartibning 4-ilovasida belgilangan diskontlar doirasida o'zaro kelishgan holda mijoz va tarmoq baholash komissiyasi a'zolari tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjat;

avtotransport vositasi – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 4-iyuldagi "Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo'yicha xavfsizligi to'g'risida"gi 191-sonli qarorining 1-ilovasida keltirilgan avtotransport vositalari;

maxsus texnika – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 31-avgustdagi 683-sonli qaroriga asosan YHXDX organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydigan transport vositalari;

BYuD – mahsulotlarning erkin muomalaga chiqarish (*IM-40*) bojxona rejimiga o'tkazilganligi to'g'risidagi bojxona yuk deklaratsiyasi;

garov reyestri – qarzдорlarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida berib qo'ygan mol-mulkiga nisbatan kreditorlarning huquqlari to'g'risidagi, shuningdek qarzдорning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlariga qonunga muvofiq qo'yilgan cheklov hamda qarzдор o'z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta'minlashi bilan bog'liq boshqa talablar haqidagi yozuvlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarning yagona axborot bazasi;

mulkiy ta'minot – ko'char va ko'chmas mulklar;

nomulkiy ta'minot – uchinchi shaxs kafilligi, sug'urta polisi va boshqa ta'minot;

likvid garov – tomonlar o'rtasida rasmiylashtirilgan garov bahosini kelishish dalolatnomasiga asosan kelishilgan garov bahosida pulga aylanish qobiliyati mavjud bo'lgan mulkiy ta'minotlar (*12 oy muddat ichida realizatsiya qilinishi mumkin bo'lgan obyektlar*).

4. Kreditlash xizmati ko'rsatilishining asosiy tamoyillari va shartlaridan biri bu ta'minlanganlikdir. Kreditni qaytarishning birlamchi manbasi qarz oluvchining pul oqimi hisoblanadi, kreditni qaytarmaslik xataridan saqlanish maqsadida ikkilamchi qaytarish manbasi sifatida ta'minot olinadi.

5. Kreditlash xizmati bo'yicha ta'minot asosiy qarz va hisoblangan foizlar bo'yicha barcha summani qoplashga yetarli bo'lishi, ya'ni ta'minotning miqdori kredit summasidan kamida 125 % (*Bankka aloqador shaxslarga 130%*)ni tashkil etishi lozim. (*Bank boshqaruvi qarori asosida jismoniy shaxslarga ajratiladigan ipoteka va avto kredit mahsulotlari bundan mustasno*).

2-bob. Ta'minot turlari va ularga qo'yiladigan talablar

6. Bank tizimida quyidagilar ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin:

- 1) mol-mulk;
- 2) moliyaviy instrumentlar (*depozitlar va qimmatli qog'ozlar*);
- 3) uchinchi shaxslarning majburiyatlari.

7. Tartibning 6-bandida ko'rsatilgan ta'minotlarning kengaytirilgan shakli mazkur Tartibning 1-ilovasida keltirilgan.

8. Kredit xatarlarini diversifikasiatsiya qilish maqsadida ta'minotning turli shakllarini qabul qilish, shuningdek kreditlarning ta'minoti sifatida yuqori likvidli mol-mulklarni garovga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

9. Garovga taqdim etilayotgan mol-mulklar quyidagi talablarga javob berishi shart:

boshqa garovdan va majburiyatdan xoli bo'lishi (*Bank tarmoqlaridan olingan kreditlarning ta'minoti sifatida garovga olingan holatlar bundan mustasno*);

likvid bo'lishi ya'ni tezda sotish orqali pul mablag'iga aylantirish imkoniyati mavjud bo'lishi;

uzoq muddat saqlash xususiyati mavjudligi (*mulkning saqlanish muddati kredit muddatidan kam bo'lmasligi*);

Bank xodimlari nazorat qilib turish imkoniyati mavjudligi;

garovga qo'yuvchida garov obyektiga nisbatan egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlari mavjud bo'lishi;

birgalikdagi umumiy mulk bo'lgan mol-mulknii garovga olish rejalashtirilgan hollarda barcha mulkdorlarning yozma roziligi berilgan bo'lishi;

kredit ta'minoti sifatida ko'chmas mulk garovi taqdim etilsa, bino va inshootlar ipotekasi bilan bir vaqtda, ular joylashgan yer uchastkasi va/yoki undan foydalanish huquqi bilan ipotekaga berilishi (*ko'p kvartirali uylardagi kvartiralar yoki ko'p qavatli noturar bino-inshootlarda birinchi qavatdan yuqorida joylashgan ko'chmas mulklar bundan mustasno*);

garov objekti baholash faoliyati to'g'risidagi qonun talablariga muvofiq baholangan bo'lishi;

garovga qo'yilgan mol-mulknii kredit muddatiga mutanosib ravishda sug'urta qildirish hamda sug'urta hollari sodir bo'lganda garovga oluvchi o'z talablari sug'urta to'lovini summasidan imtiyozli qondirilishi huquqiga ega bo'lishi.

10. Quyidagilar ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin emas:

Bank qimmatli qog'ozlari garovi;

yuridik shaxslarning ustav fondidagi (*ustav kapitalidagi*) aksiyalari hamda ulushlari garovi;

kelajakdagi pul tushumlarini kredit ta'minoti sifatida olish (*ustuvor (bazaviy) tarmoqlarlar tarkibiga kiruvchi korxonalarga 18 oygacha ajratiladigan kreditlarda ularning pul tushumlarining olinishi yoki eksportyor korxonalarga ajratiladigan kreditlarda eksport shartnomalariga asosan kelajakda tushadigan pul mablag'lari (akkreditiv ochilgan hollarda) garovi bundan mustasno*);

ishlab chiqarilganiga 3 yildan oshgan qishloq xo'jaligi texnikalari va maxsus texnikalarni (*ekskavator, yuk tashuvchi maxsus texnikalar, kran va b.*) olish (*kredit qarzdorligi evaziga Bank balansiga olingan mulklar, qo'shimcha ta'minot sifatida olish holatlari bundan mustasno*);

ishlab chiqarilganiga 2 yildan oshgan asbob-uskunalar (*kredit qarzdorligi evaziga Bank balansiga olingan mulklar, shuningdek ishlab chiqarilganiga 5 yildan oshmagan uskunalar ular joylashgan bino/er bilan birgalikda ta'minotga taqdim etilgan holatlar bundan mustasno*);

byudjet tashkilotlari kafilligi (*mahalliy hokimiyat tomonidan boshqaruv kompaniyalariga ajratilgan kreditlar uchun taqdim etilgan kafilliklar bundan mustasno*);

to'lovga qobiliyatsiz, moliyaviy barqaror bo'lmagan, nosog'lom hamda doimiy pul oqimiga ega bo'lmagan yuridik shaxslarning, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik subyektlarining kafilliklari;

nolikvid, kelgusida sotilishi qiyin bo'lgan mulklar, oson buzilishi, tez qadrsizlanishi yoki boshqa salbiy omillar ta'sirida qiymatini yo'qotishi mumkin bo'lgan mol-mulklar garovi;

tarixiy, madaniy yoki boshqa qadriyatlarga mansubligi sababli davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiylashtirilishi hamda sotib olinishi mumkin bo'lmagan mol-mulklar garovi;

doimiy ro'yxatda fuqarolar mavjud bo'lgan uy-joylar (*Bank tomonidan ajratiladigan ipoteka kreditlari uchun ta'minot sifatida taqdim etiladigan uy-joylar bundan mustasno*), uy jihozlari va idishlar, kiyim-kechak hamda qarzdorning oilasi normal hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan boshqa buyumlar (*qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan ayrim holatlar bundan mustasno*);

zarar ko'rib ishlovchi, noliqvid balansga ega xo'jalik yurituvchi subyektlarning kafilligi (*likvidli ta'minot mavjud bo'lib, kafillik qo'shimcha ta'minot sifatida qabul qilinish holatlari yoki ustuvor (bazaviy) tarmoqlarning kafilliklari bundan mustasno*);

nodavlat va notijorat tashkilotlarining kafilligi;

servitut hududga ega bo'lmagan yoki alohida tashqi tomondan kirish imkoni bo'lmagan obyektlar yoki obyekt ichidagi binolar (literlar);

qimmatbaho toshlar va noyob zargarlik buyumlari garovi;

muomaladan chiqarilgan mol-mulklar garovi;

boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan mol-mulklar/talablar garovi;

korxona va tashkilotlar ichida joylashgan hamda alohida chiqish yo'liga ega bo'lmagan bino/inshootlar garovi;

tegishli kadastr hujjatlari (tasarruf etish huquqi) mavjud bo'lmagan va davlat ro'yxatidan o'tmagan bino va inshootlar garovi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklari kafilliklari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari kafilliklari;

chet elda joylashgan mol-mulklar;

masjid, cherkov va shunga o'xshash diniy obyektlar;

bahsli (nizoli) holatda bo'lgan mulklar (sud jarayoni davom etayotgan). Bu amaliyot my.sud.uz sayti orqali tekshiriladi;

qisman yoki to'liq davlat tasarrufidagi bo'lgan dehqon va savdo bozorlari;

kadastr hujjatlariga asosan yerga bo'lgan huquq turi aniqlanmagan ko'chmas mulklar;

qurilishi tugallanmagan/tugallangan ko'p-qavatli uylar (*ushbu ko'p-qavatli uylarda qurilish ishlarini amalga oshirish uchun kredit berilayotganda ipoteka to'g'risidagi shartnomada majburiyatni mazkur mulklarning o'zi bilan ta'minlash bundan mustasno*)

qurilishi tugallanmagan yakka tartibdagi uy-joylar;

puqrat tashkiloti egalik huquqidagi foydalanishga topshirilgan ko'p kvartirali uy joylardagi kadastr hujjatlari mavjud va turar joy sifatida aholiga sotishga tayyor xonadonlar (*ushbu ko'p-qavatli uylarda qurilish ishlarini amalga oshirish uchun kredit berilayotganda ipoteka to'g'risidagi shartnomada majburiyatni mazkur mulklarning o'zi bilan ta'minlash bundan mustasno*);

qurilishi tugallanmagan bozor/savdo komplekslari (*ushbu bozor/savdo komplekslarida qurilish ishlarini amalga oshirish uchun kredit berilayotganda ipoteka to'g'risidagi shartnomada majburiyatni mazkur mulklarning o'zi bilan ta'minlash bundan mustasno*);

kelgusida buzilishi yoki qayta qurilishi kutilayotgan bino/inshootlar garovi;

suv, havo va temir yo'l transporti vositalari garovi.

11. Kredit ta'minoti sifatida ko'char mulklar (*avtotransport, maxsus texnika, uskunalar va x.k*) taqdim etilayotganda, ularning qancha vaqtdan buyon ishchi holatda ekanligi ishlab chiqarilgan yilidan kelib chiqib hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarilgan yil 1 yil hisobiga o'tadi. (*misol uchun 2024-yilda ishlab chiqarilgan uskunalar 2025-yilga kelib 1 yil ishchi holatda deb hisoblanadi*).

12. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar yoki mahalliy dillerlar tomonidan sotib olingan uskunalar ta'minotga taqdim etilishida ushbu uskunalarining sotib olish bo'yicha oldi-sotdi shartnomalar talab qilib olinishi va oldi sotdi shartnomalarda uskunalarining tavsifi, ishlab chiqarish quvvati va ishlab chiqarish yili ko'rsatilgan bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi.

13. Ta'minot sifatida taqdim etilayotgan ko'chmas mulklarning kadastr raqami davreestr.uz sayti orqali, ushbu mulkka taqiq mavjud yoki mavjud emasligi garov.uz va notarial idoralar ma'lumotlar bazasidan tekshirilishi va undan keyin garov bahosini kelishish dalolatnomasi rasmiylashtirilishi lozim.

14. Garov egalari ustidan sud jarayoni olib borilmayotganligi (*aniqlashtirish imkoni bo'lganda*) Baholash komissiyasi tomonidan tekshiriladi.

15. Ko'chmas mulklar uning kadastr hujjatlariga asosan yerga va binoga bo'lgan huquqi aniq bo'lgandagina kredit ta'minoti sifatida garovga olinishi mumkin.

Kadastr hujjatiga asosan yerga bo'lgan huquq ijara asosida bo'lsa, ijara shartnoma nusxasi talab qilib olinib, uning amal qilish muddati kredit muddatiga mosligi o'rganiladi. Agarda ijara muddati kreditlash xizmati muddatidan kam bo'lsa, keyinchalik ushbu muddat kreditlash xizmatining muddatiga mutanosib ravishda qo'shimcha rasmiylashtiriladi. Bu qoida tomonlar o'rtasida tuziladigan kredit shartnoma shartiga kiritilishi lozim.

16. Agar kredit ta'minotiga ko'chmas mulkning bir qismi qabul qilinayotgan bo'lsa, ko'chmas mulkning kadastr hujjatlarida ushbu qism va uning maydonlari alohida ko'rsatilganligini tekshirish hamda ushbu bino va inshootdan kelgusida alohida foydalanish imkoni mavjudligiga e'tibor qaratish lozim.

17. Ikki va undan ortiq qavatlariga ega binoning ma'lum bir qavati yoki qavatlari ta'minotga taqdim etilishi ko'zda tutilgan hollarda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1). Bino va bino ichidagi qavatlar bitta shaxsga tegishli bo'lganda ta'minotga olinishi ko'zda tutilgan qavat(lar) uchun alohida rasmiylashtirilgan kadastr pasporti talab qilib olinadi;

2). Bino ichidagi qavatlar bir necha shaxslarga tegishli bo'lganda:

a) ta'minotga olinishi ko'zda tutilgan qavat yoki qavatlar uchun alohida kadastr hujjati talab qilib olinishi;

b) qavat egalari o'rtasida umumiy maydondan (zina, lift v.x.) birgalikda foydalanish bo'yicha shartnoma imzolangan va ushbu shartnoma davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lishi shart.

18. Bank tomonidan turli manbalar (*KATM, Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlar bazasidan va x.k*) orqali kredit ishtirokchilarining (*garov va kafilning vakolatli shaxslari*) ma'lumotlar olinishi bo'yicha kredit xizmati ishtirokchilarining roziligi olinishi lozim.

3-bob. Garovga qo'yilayotgan mulkni baholash tartibi

19. Mol-mulklarni garovga olish, garov shartnomasini rasmiylashtirish ishlarini amalga oshirishning dastlabki bosqichi – bu garov obyektini baholashdir.

Garovga qo'yilayotgan mulklarni baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

Garov mulkini mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan baholash (*ushbu Tartibda istisno berilgan holatdan tashqari*);

Garov mulki mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan baholanganidan so'ng, garov mulkining qiymati (bahosi)ni garovga qo'yuvchi/qarz oluvchi bilan kelishish va garov mulki bahosini kelishish dalolatnomasini rasmiylashtirish.

Quyida keltirilgan hollarda garov mulkini mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi talab etilmaydi:

a) Bank boshqaruvi yoki Bank mahsulotlarini boshqarish katta qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan kredit mahsuloti shartlarida ko'rsatilgan holatlarda;

b) ushbu Tartib bilan istisno berilgan holatlarda.

20. Baholash - baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi hujjatga ega bo'lgan baholash tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash obyektini baholashdan o'tkazish natijalari baholash to'g'risidagi hisobot bilan rasmiylashtiriladi.

21. Baholash to'g'risidagi hisobotda quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

baholash to'g'risidagi hisobot tuzilgan sana va uning tartib (ro'yxatdan o'tkazilganlik) raqami;

baholash obyektini baholashdan o'tkazish uchun asos;

baholash obyektini baholashning maqsadi;

baholash obyektining aniqlanadigan qiymati turi;

baholovchi tashkilotning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili to'g'risidagi ma'lumotlar);

baholash obyektini baholashdan o'tkazgan baholovchining (*baholovchilarning*) malaka sertifikatiga to'g'risidagi ma'lumotlar;

baholash obyektining uning qiymatini aniqlash sanasidagi aynan identifikatsiya qilish imkonini beradigan tavsifi, shuningdek baholash obyekti mulkdorining rekvizitlari;

baholash standartlari, ulardan foydalanish uchun asos, baholash obyektini baholashdan o'tkazishda foydalanilgan ma'lumotlarning mazkur ma'lumotlar olingan manbalar ko'rsatilgan holdagi ro'yxati;

baholash obyektini baholashdan o'tkazish izchilligi, shuningdek olingan natijani qo'llanish chegaralari;

baholash obyektining qiymati aniqlangan sana;

obyekt qiymati aniqlanishida ishlatilgan hisob kitoblar (*xarajat, daromad va qiyosiy yondashuv*); Bunda, qiyosiy yondashuvni aniqlashda qo'llanilgan va asos bo'lgan rasmiy analoglar mavjudligi va loyiha uchun ixtisoslashtirilgan bino inshootlar bo'yicha (*analoglar mavjud bo'lmagan xollarda*) xarajatlar yondashuvi bilan amalga oshirish;

baholovchi tashkilot foydalanadigan hamda baholash obyektining miqdor va sifat xususiyatlarini belgilaydigan hujjatlar ro'yxati.

Kredit olish uchun ariza topshirilgan vaqtda mustaqil baholash hisoboti tuzilgan (hisoboti ro'yxatdan o'tkazilgan) sana 6 oydan oshmagan bo'lishi kerak.

22. Baholanayotgan obyekt alohida binolardan iborat bo'lsa, baholash hisobotida kadastr hujjatlariga muvofiq bino inshootlarning har biri alohida baholangan bo'lishi shart (*kadastr hujjatiga*

asosan turar joy toifasiga ajratilgan mulklar bundan mustasno). Agarda mustaqil baholovchi tomonidan bino inshootlar va uskunalar birgalikda kompleks ravishda baholangan taqdirda, baholash hisobotida bino inshoot va uskunalarining narxlari alohida ko'rsatib o'tilishi zarur.

23. Baholanayotgan obyekt uskunalaridan iborat bo'lsa, uskunalarining ishchi holatda ekanligi, ishlab chiqarilgan yili va joyi (davlati), erkin muomalaga chiqarish (IM-40) bojxona rejimiga o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjat yoki oldi sotdi shartnomalar mavjudligiga e'tibor qaratish lozim. Bunda, mustaqil baholovchi tomonidan aniqlangan qiymat uskunalarining sotib olingan (*BYuD va/yoki import shartnoma/oldi-sotdi shartnoma*) qiymatidan yuqori bo'lsa, bu holatda mustaqil baholovchi hisoboti qabul qilinmaydi.

24. Kredit hisobiga sotib olinadigan ko'chmas mulk (*jismoniy shaxslar uchun ikkilamchi bozordagi ko'chmas mulk*) ta'minot sifatida garovga taqdim etilishida, dastlab ushbu mulk bo'yicha mustaqil baholovchi (*zarur hollarda boshqa mustaqil baholovchi tavsiyaviy xulosasi*) tashkilot hisoboti olinadi hamda tomonlar o'rtasida mulkni sotish bo'yicha rasmiylashtirilgan oldi-sotdi shartnoma qiymati mustaqil baholovchi/tavsiyaviy xulosa qiymatidan yuqori bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

25. Mustaqil baholovchi tashkilotning baholash xulosasida garov obyektini qiymatini aniqlashda qo'llanilgan uslub va hisob-kitoblar, tasdiqlovchi hujjat va ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, baholash komissiyasi tomonidan ushbu hujjatlar va ma'lumotlar talab qilib olinishi kerak.

26. Baholash xulosasi qonun talablariga javob bermagan yoki baholovchi tomonidan belgilangan mulk qiymatining bozor bahosiga to'g'ri kelishiga shubha tug'ilgan hollarda, bunday xulosani qabul qilmaslik yoki baholash xulosasida xarajat, daromad va qiyosiy usullar orqali aniqlangan mulk bozor qiymatining ishonchligini tekshirish uchun belgilangan tartibda boshqa mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan tavsiyaviy xulosa olinishi mumkin.

Tavsiyaviy xulosada ko'rsatilgan mulk qiymati mustaqil baholash hisobotida ko'rsatilgan qiymatdan past bo'lgan taqdirda, baholash komissiyasi tomonidan garov obyektining garov qiymatini yetarliligini belgilash bo'yicha diskont miqdori tavsiyaviy xulosada ko'rsatilgan qiymatdan kelib chiqib belgilanadi. Tavsiyaviy xulosada ko'rsatilgan qiymat bo'yicha mijozda e'tiroz tug'ilgan taqdirda, mustaqil baholovchi tashkilot hisoboti belgilangan tartibda ekspertiza qilishini mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-avgustdagi 213-sonli "Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur'atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, ajratiladigan kreditlar uchun taqdim etilishi ko'zda tutilgan garov ob'ektining garov qiymatini yetarliligini belgilash bo'yicha diskont miqdori mustaqil baholovchi hisobotidagi qiymatdan kelib chiqib, ammo tavsiyaviy xulosada ko'rsatilgan qiymatdan yuqori bo'lmagan miqdorda belgilanishiga yo'l qo'yiladi.

27. Garov narsasi mavjudligini, uning holatini joyiga chiqqan holda o'rganish baholash komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Baholash komissiyasi Bosh Bankning tegishli buyrug'i/farmoyishiga asosan tuziladi.

Baholash komissiyasi tarkibi mazkur Tartibning 2-ilovasida keltirilgan mutaxassislardan iborat bo'lishi shart.

Baholash komissiyasi a'zosi vaqtinchalik ishda bo'lmagan (*mehnat ta'tili, mehnatga layoqatsizlik davrida, xizmat safari va b.*) davrda, uning vazifasini vaqtincha bajarish yuklatilgan

xodim (*vazifani yuklash to'g'risidagi ichki buyruqqa asosan*) baholash komissiyasi a'zosi sifatida qatnashadi va dalolatnomani imzolaydi.

28. Baholash komissiyasi mustaqil organ hisoblanadi va mol-mulkni yakuniy garovga olish qiymati ushbu komissiya tomonidan belgilanadi. Baholash komissiyasi ish faoliyatiga va qaror qabul qilish jarayoniga aralashish taqiqlanadi. Ayrim hollarda kreditlash xizmatini ko'rsatish bo'yicha qaror qabul qiluvchi organ tomonidan baholash komissiya tomonidan aniqlangan mol-mulk qiymati qayta ko'rib chiqish uchun qaytarilishi mumkin.

29. Garovga qo'yilayotgan mulk qiymatini kelishish garovga taklif etilayotgan mulk joylashgan joyga qarz oluvchi/mulk egasi va Bank baholash komissiyasi barcha a'zolari bilan birgalikda chiqib, obyektning kadastr hujjatlari va baholovchi tashkilotning baholash xulosalari bilan solishtirgan holda o'rganib, garov bahosini kelishish dalolatnomasi (keyingi o'rinlarda – baholash dalolatnomasi) imzolangan bo'lishi kerak. Bunda, komissiya a'zolarining garov obyekti joylashgan joyga chiqqan holda vizual tartibda ko'rish ularning shaxsiy majburiyati hisoblanadi (*Bank mahsulotlarini boshqarish katta qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan kredit mahsulotlarida istisno qilingan holatlar bundan mustasno*).

Garov predmeti bahosini birgalikda kelishish natijalariga ko'ra, baholash dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Bunda, dalolatnomani bank tarmog'i nomidan baholash komissiya a'zolari va garovga qo'yuvchi tomonidan imzolanishi hamda taraflarning muhri bilan tasdiqlanishi lozim. Agar garovga qo'yuvchi uchinchi shaxs bo'lsa, dalolatnoma uch tomonlama, ya'ni qarz oluvchi, garovga qo'yuvchi va bank tarmog'i baholash komissiyasi a'zolari tomonidan imzolanishi va muhrlar bilan tasdiqlanishi lozim (*garov egasining muhri bo'lmagan holat bundan mustasno*). Bunda baholash dalolatnomasi dastlab baholash komissiyasi tomonidan rasmiylashtirilib, kredit xizmatini ko'rsatish bo'yicha kollegial organ tomonidan qaror qabul qilingandan so'ng dalolatnoma qarz oluvchi va ta'minot egalari tomonidan imzolanishi ham mumkin.

Kredit ta'minoti sifatida ikki va undan ortiq yuridik va/yoki jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklar taqdim etilgan holatlarda baholash dalolatnomasi alohida alohida tuzilishi mumkin.

Bank kreditlari hisobiga oldi-sotdi/import shartnomalarga asosan sotib olinayotgan yangi asbob uskunalar, texnikalar (*mulklar*) hamda birlamchi bozordan sotib olinayotgan transport vositalari va uy-joylar ta'minot sifatida garovga olinishi rejalashtirilgan hollarda, baholash dalolatnomasi mijoz menejeri tomonidan imzolanishi mumkin (*ushbu qoida Jismoniy shaxslar va so'ralayotgan kredit summasi 600,0 mln.so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo'llaniladi*). Bunda garov obyekti qiymatini belgilashda, Bankning ichki qoidalarida belgilangan chegirmalar inobatga olingan bo'lishi lozim.

30. Komissiya a'zolaridan garov mulki bahosini kelishishda quyidagilarni inobatga olish talab etiladi:

- a) garov narsasi uzoq muddat saqlanishi xususiyatiga ega bo'lishi;
- b) garov narsasining moddiy va ma'naviy eskirishi darajasi;
- d) garov narsasi narxining nisbatan barqarorligi;
- e) garov narsasining keng iste'mol doirasiga egaligi, uning tez va erkin sotilishi imkoniyatlari hamda likvidlilik sifat ko'rsatkichlari;
- f) garov obyekti joyiga chiqib o'rganilganida, uning kadastr hujjatlariga monandligi;

g) garovga taklif etilayotgan mulkda uchinchi shaxslarning ulushi borligi, unga nisbatan taqiq qo'yilmaganligi, avval boshqa kreditorlar oldida majburiyatlar bo'yicha garovga qo'yilmaganligi, nizoli emasligi;

h) garovga qo'yilayotgan mulk ko'char mulk (*asbob-uskuna, avtotransport vositalari va b.*) bo'lsa, mulk ishlab chiqarilgan yili, texnik hujjatlar bo'yicha barcha qismlar mavjudligi (butlanganligi), ishlab chiqarish quvvati;

i) garovga qo'yilayotgan mulk avval foydalanilgan bo'lsa, amortizatsiya ko'rsatkichlari va baholanayotgan paytdagi haqiqiy ishchi holati.

Qurilish tugallanmagan bino inshootlarini o'rganish jarayonida, loyiha tashkilotidan qo'shimcha tarzda qurilish ishlari bajarilganligi holati yuzasidan ma'lumotnoma so'ralishi mumkin.

31. Garov obyektini ko'zdan kechirish natijalari asosida mazkur Tartibning 3-ilovasiga muvofiq "Garov obyektini bahosini kelishish dalolatnomasi" tuziladi. Rasmiylashtirilgan dalolatnomaga ko'zdan kechirish jarayonida olingan suratlar ilova qilinishi zarur.

32. Baholash dalolatnomasida quyidagilarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim:

baholash o'tkazilayotgan hudud va baholash sanasi;

qarz oluvchiga xizmat ko'rsatilayotgan bank tarmog'i nomi;

qarz oluvchi nomi, kredit summasi va valyutasi;

kredit uchun zarur bo'lgan ta'minot miqdori;

ta'minot egasi, ta'minot nomi va uning manzili, ta'minot egasi;

ko'chmas mulk kadastr raqami, mulkning umumiy va qurilish osti maydoni;

ko'char mulk ishlab chiqarilgan yili;

mustaqil baholash tashkiloti nomi va u tomondan aniqlangan qiymat;

tavsiyaviy xulosada ko'rsatilgan qiymat;

Bank, qarz oluvchi va garov egasi tomonidan kelishilgan (*Bank tomonidan qabul qilinadigan*) qiymat;

mustaqil baholovchi hisobotida ko'rsatilgan yoki tavsiyaviy xulosada ko'rsatilgan qiymat bo'yicha qo'llanilgan diskont miqdori (*foizda*);

mol-mulklar qiymatining kreditni qoplashdagi nisbati (*foizda*);

Bank baholash komissiya a'zolari lavozimi va ism-sharifi;

garovga qo'yuvchi va qarz oluvchi vakolatli shaxslari nomi.

4-bob. Baholash komissiyasi tomonidan garov obyektini joyiga chiqqan holda o'rganish tartibi

33. Baholash komissiyasi tomonidan kreditlash xizmatga ta'minot uchun taqdim etilayotgan mol-mulklar kunduz kuni (*kunning yorug' qismida, yetarli darajada yorug'lik mavjud bo'lgan vaqtda*) joyiga chiqqan holda vizual ko'rigi amalga oshiriladi. Bunda baholash komissiyasi tomonidan transport vositalari va ko'p qavatli turar joydagi xonadonlar kunning istalgan vaqtida o'rganilishi mumkin.

Kreditlash xizmatiga ta'minot sifatida taqdim etilayotgan garov mulki kredit ajratayotgan bank tarmog'idan uzoqda (*boshqa viloyatda*) joylashgan bo'lsa, ushbu garov mulki joylashgan manzilga yaqin bank tarmog'i baholash komissiyasi tomonidan garov mulki baholanishi mumkin. Bunda kredit

ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan mol-mulkklar bevosita Baholash komissiyasining barcha a'zolari tomonidan joyiga chiqqan holda o'rganilishi shart.

34. Baholash komissiyasi tomonidan kredit ta'minoti sifatida garovga taqdim etiladigan har qanday mulkning vizual ko'rigi garov obyekti joylashgan joyida amalga oshirilishi, uning haqiqatda mavjudligi, identifikatsion belgilari, saqlash va foydalanish shartlari, ishchi holati hamda foydalanishga yaroqliligi tekshirilishi shart (*Bank mahsulotlarini boshqarish katta qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan kredit mahsulotlarida istisno qilingan holatlar bundan mustasno*).

35. Har bir garov obyekti alohida suratga olinishi, xususan uning individual xususiyatlari, joylashuvi va obyektning yon atrofi aks ettirilishi lozim (*asbob-uskunalarining identifikatsion xususiyatlari – ishlab chiqaruvchi zavod nomi, seriya raqami, ishlab chiqarilgan sana, ishlab chiqarilgan mamlakat va egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlarga muvofiq bo'lishi lozim*).

36. Garov obyektini rasmga olish jarayonida obyektning tashqi ko'rinishi har tomonlama olinishi, agar ko'zdan kechirilayotgan obyekt ko'chmas mulk bo'lsa, unda albatta ichki ko'rinishi ham suratga olinishi zarur, xususan binoning ichki pardoz va nuqsonli joylari (*darz ketgan, shikastlangan joylar va x.k.*) o'z aksini topishi lozim.

37. Ko'chmas mulk obyektlarining fotosuratlari Google Earth (*Google Map va boshqalar*) geolokatsion xizmatlar orqali nusxalash yo'li bilan fotosuratlar olish zarur. Bunday fotosuratlar obyektning aniq joylashuvini va barcha qismlari (*bino inshoot va boshqalar*)ni ust tomondan ko'zdan kechirish hamda yaqin hududda joylashgan obyektlarni tahlil qilish, garov obyektidan alohida foydalanish imkoniyatining mavjudligini, ko'chmas mulkning boshqa qismlaridan alohida bo'lgan kirish-chiqish mumkinligini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

38. Geolokatsion xizmatlar orqali olingan lokatsiya fotosuratlari baholash dalolatnomaga ilova qilinishi lozim.

39. Bino inshootlar hamda qurilishi tugallanmagan obyektlar kamida 5 ta (yoki mulkni to'liq o'rganishga yetarli miqdorida) ko'rinishda ichki va tashqi tarafdin suratga olinishi lozim.

40. Agarda garov obyekti bir necha liter (blok)lardan iborat bo'lib, kreditning ta'minoti sifatida faqat bittasi yoki bir nechitasi taqdim etilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, Baholash komissiyasi tomonidan garovga berilayotgan obyektning qismlariga alohida kirish yo'laklari yoki servitut huquqi mavjudligi tekshirilishi lozim;

Garov obyektiga nisbatan servitut huquq mavjud bo'lmagan yoki alohida tashqi tomondan kirish imkoni bo'lmagan obyektlar yoki obyekt ichidagi binolar (*literlar*) garovga olinishi mumkin emas. Kredit ajratish jarayonida bunday huquq mavjud bo'lmagan hollarda, qarz oluvchi/garovga beruvchi tomonidan garov (*ipoteka*) shartnomasi rasmiylashtirilguniga qadar olinishi mumkin.

1-§. Avtotransport vositalarini suratga olish tartibi

41. Garov sifatida avtotransport (*engil avtomobillar, avtobuslar, maxsus texnikalar va boshqa turdagi*) vositalari taqdim etilganda ular quyidagicha suratga olinishi shart:

- umumiy ko'rinishi;
- old tarafdin ko'rinishi;
- orqa tarafdin ko'rinishi;
- o'ng va chap yon taraflaridan ko'rinishi;

avtotransportning bosib o'tgan masofasini ko'rsatuvchi o'lchagichi (*spidometr*) (*maxsus texnikalarda motosoat*);

identifikatsiyalovchi shassi (*rama*), kuzov va dvigatellar (*tirkama va yarim tirkamalar bo'lganda*) raqami tushirilgan foto surat.

Avtotransport vositasini ko'zdan kechirish jarayonida uning texnik pasportining asli ko'rilib, foto suratga olinishi lozim.

2-§. Bino-inshootlarni suratga olish tartibi

42. Garov sifatida bino-inshootlar taqdim etilganda ularni suratga olish quyidagicha amalga oshiriladi:

birinchi navbatda binoning tashqi ko'rinishi – bunda bino qayerda joylashgani haqida tasavvur paydo bo'lishi uchun, binoning umumiy ko'rinishidagi fotosuratda uning atrofidagi boshqa, quyi binolar va yo'llar aks ettirilishi;

binoning tashqi ko'rinishi suratga olinganda – binoning old tomoni, yon tomonlari va imkoni bo'lsa orqa tomonlarining fotosuratlari bo'lishi;

bino-inshootlar bir nechta literlardan iborat bo'lsa, xar bir literlarni aks ettiruvchi alohida fotosuratlar bo'lishi;

binoning ichki hovli hamda xonalarini rasmga olishda fotosuratlar ketma - ketlik tartibiga amal qilinishi;

bino-inshootning xonalarini suratga olinganda har bir xonaga kirishni va kamida ikkita burchakdan xonalarining ichki ko'rinishini aks ettiruvchi fotosuratlar bo'lishi shart.

3-§. Uskunalarni suratga olish tartibi

43. Garov sifatida uskunalar taqdim etilganda ularni suratga olish quyidagicha amalga oshiriladi:

uskunalarining yaxlit holda umumiy ko'rinishdagi fotosurati (*to'rt tomonidan*);

uskunalarining yakka holda umumiy ko'rinishdagi fotosurati (*to'rt tomonidan*);

har bir uskunaning texnik parametrlari ko'rsatilgan yorlig'i (*birka*);

uskunalar ishchi holatda bo'lsa ularning ishlab turgan paytdagi videosi olinishi ham mumkin.

4-§. Tovar moddiy zaxiralari (TMZ)ni suratga olish tartibi

44. Garov sifatida tovar moddiy zaxiralari taqdim etilganda tovar moddiy zaxiralari qayerda joylashgan bo'lsa o'sha yerda suratga olinadi.

45. Baholash komissiyasi kreditlash xizmatiga ta'minot sifatida taqdim etilayotgan mulkning tegishli hujjatlari haqqoniyligi va ushbu mulk real bozor bahosidan kelib chiqib baholanishiga javobgardir. Bunda quyida keltirilgan qoidalaridan foydalaniladi:

ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha – kadastr hujjatlari (*bitimlari bilan birga*) nusxasi, ko'chmas mulkka egalik qilish huquqini tasdiqlovchi guvohnoma nusxasi va yer uchastkasidan foydalanish huquqini belgilovchi hujjatlar nusxalari va boshqa qo'shimcha hujjatlar;

transport vositalari – Transport vositasining texnik pasporti nusxasi;

asbob-uskunalar – Bojxona yuk deklaratsiyasi nusxasi (BYuD), uskunaning texnik pasporti, oldi-sotdi shartnoma/import shartnoma va/yoki hisob fakturalari nusxasi;

tovar moddiy boyliklari (TMB) – garovga qo'yuvchi shaxsda mavjud bo'lgan garov uchun mo'ljallangan tovarlar inventarizatsiyasi yuzasidan dalolatnoma nusxasi va tovar moddiy boyliklarining omborxonada mavjud qoldig'ini tasdiqlovchi korxona rahbari va bosh hisobchisi imzosi hamda korxona muhri bilan tasdiqlangan ma'lumotnoma, saqlash bilan bog'liq hujjatlar. Loyiha xususiyatidan kelib chiqqan holda, Bank tomonidan qo'shimcha tarzda TMBlarning dastlabki hisob-kitob hujjatlari, tashish (*transport ekspeditsiyasi*), oldi-sotdi, yetkazib berish to'g'risidagi shartnomalar, tovar-transport yuk xatlari nusxalari talab qilinishi mumkin;

qimmatli qog'ozlar va depozitlar – garovga qo'yuvchi shaxsda mavjud bo'lgan qimmatli qog'ozlar, depozit shartnomalari, depozit shartnomalari nusxalari hamda mulkiy huquqni tasdiqlovchi boshqa hujjatlari.

Ombordagi tovarlar miqdori buxgalteriya balansi (Sh¹) ma'lumotlariga ko'ra quyidagi summadan oshmasligi o'rganilishi kerak:

Ombordagi tovarning maksimal miqdori = 410 satr Sh¹ + 450 satr Sh¹ + 570 satr Sh¹ + 580 satr Sh¹ - 130 satr Sh¹ - 290 satr Sh¹

Ombordagi tovarlarni bosh kelishuv doirasida ajratiladigan individual kredit shartnomaning ta'minoti sifatida qabul qilinishi mumkin. Bunda individual kredit shartnoma doirasida ajratilishi ko'zda tutilgan kreditlar bo'yicha ushbu badda keltirilgan ma'lumotlar o'rganilgan ombordagi tovarni ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin.

Kollegial organ tomonidan kredit mablag'lari ajratish yuzasidan ijobiy qaror qabul qilingandan so'ng, bosh kelishuv doirasidagi individual kredit shartnoma bo'yicha ombordagi tovarlarning ta'minot sifatida rasmiylashtirilishida ushbu badda keltirilgan talab va hujjatlarning mavjudligi Operatsion departament tomonidan o'rganiladi.

46. Garovga qo'yuvchining garov obyektiga nisbatan mulkiy huquq mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlardan nusxalar olingandan so'ng, mazkur garov obyektiga nisbatan taqiq yoki cheklovlar mavjudligi mijoz bilan ishlovchi menejer tomonidan garov obyektining parametrlariga qarab Garov reyestri DUK (www.garov.uz)ga so'rovnoma jo'natish orqali aniqlanadi.

47. Yuridik shaxs ustavida yuridik shaxsning aktivlarini boshqalarga begonalashtirishning boshqa shartlari ko'zda tutilgan taqdirda mulkni/moliyaviy aktivni/kafillikni kredit ta'minoti sifatida taqdim etish borasidagi hujjatlar garovga qo'yuvchining ta'sis hujjatlarida belgilangan talablarga asoslangan holda tuzilishi lozim.

5-bob. Ta'minotning Bank tomonidan qabul qilinadigan qiymatini aniqlash

48. Amaliyotda ko'chmas mulk, avtotransport vositalari va asbob-uskunalar taqqoslash usuli bilan bozor qiymati aniqlanadi, mulk qiymatini baholash quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

baholanayotgan obyektning aniq tavsiflarini belgilash (*ko'zdan kechirish, mustaqil baholash tashkiloti hisoboti va boshqa vositalar yordamida*);

baholanayotgan mulkni yangi va avval foydalanishda bo'lgan analoglarni bozorini tahlil qilish;

baholanayotgan mulkka aniq analoglar tanlash;

narx belgilashga ta'sir etuvchi omillarni belgilash;

tanlab olingan analoglar va baholanayotgan mulk o'rtasidagi farqni inobatga olib o'rtacha narx belgilash;

obyekt qiymati ahamiyatini aniqlash.

49. Garov obyektining garov qiymati yetarliligini belgilash to'g'risida qaror qabul qilishda mazkur Tartibning 4-ilovasida ko'rsatilgan diskont miqdorlari doirasida amalga oshirish talab etiladi.

50. Moliyaviy instrumentlar garovga olinganda mazkur Tartibning 5-ilovasida ko'rsatilgan diskont miqdori doirasida amalga oshirilishi talab etiladi.

51. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan hamda bir vaqtning o'zida ishlab chiqarilganiga 6 oydan oshmagan yuk mashinalari va avtotransport vositalari garovga taqdim etilganda, ularning Bank tomonidan qabul qilinadigan qiymati transport vositalarini sotib olganligi to'g'risida hisob fakturada keltirilgan qiymatdan kelib chiqib belgilanadi (*mustaqil baholovchi tashkilot hisoboti talab etilmaydi*). Bunda, garovga qo'yuvchi tomonidan avtotransport vositalarini sotib olganligi to'g'risida hisob faktura taqdim etilishi hamda hisob fakturada ko'rsatilgan sanadan mijozning kredit ajratish bo'yicha taqdim etgan arizasi sanasigacha bo'lgan vaqt 6 oydan oshmagan bo'lishi shart.

52. Kredit hisobiga sotib olinayotgan, qurilayotgan garov obyektlari kreditlash xizmatiga ta'minot sifatida kredit shartnoma tuzilgandan so'ng, rasmiylashtirilishi mumkin. Bunda, ushbu garov obyektlari kredit ta'minoti sifatida taqdim etilishi tomonlar o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasida ko'rsatilgan bo'lishi shart.

53. Kredit hisobiga sotib olingan uskunalarning qiymati yetarliligini belgilash bo'yicha diskont miqdori BYuD va/yoki import shartnoma/oldi-sotdi shartnomada ko'rsatilgan qiymatdan kelib chiqib belgilanadi (*uskunalarning qiymati BYuD rasmiylashtirilgan sanadagi xorijiy valyutaning Markaziy bankdagi milliy valyutadagi kross kursi bo'yicha hisoblanadi*).

6-bob. Navbatdagi garov obyektlarini kreditlash xizmatiga ta'minot sifatida rasmiylashtirish

54. Bank tizimida boshqa banklardagi majburiyatlar uchun garovga taqdim etilgan garov obyektlarini kreditlash xizmatiga ta'minot sifatida navbatdagi garovga olish taqiqlanadi (*Mikro va kichik biznes yo'nalishida qayta moliyalashtirish kredit mahsulotlari doirasida dastlabki kreditorlardan navbatdagi garovga ruxsat berilgan mol-mulklarni navbatdagi garovi bundan mustasno*).

Bank tarmoqlari tomonidan ajratilgan kreditlash xizmatlariga ta'minot sifatida garovga olingan mol-mulklarni boshqa banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlash xizmati ta'minoti uchun navbatdagi garov sifatida olinishiga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu shart tomonlar o'rtasida tuziladigan garov shartnomasida aks ettirilishi shart.

55. Navbatdagi garovga, agar u garov to'g'risidagi oldingi shartnomalarda taqiqlanmagan bo'lsa hamda basharti oldingi va navbatdagi garovga oluvchilar tomonidan garov reyestriga tegishli yozuv kiritilgan bo'lsa, yo'l qo'yiladi. Bunda, mulkning garov qiymatini kelishish dalolatnomasida va garov shartnomalarida ushbu mulk bilan ta'minlangan barcha majburiyatlardagi garov yukini navbatdagi garov shartnomalarini rasmiylashtirish vaqtida hisob-kitob asosida garov obyekti umumiy garov qiymati qayd etilishi zarur.

Navbatdagi garov shartnomasi rasmiylashtirilishida mol-mulkning oldingi/so'ngi narxi, yangi tuzilayotgan garov shartnomasida ko'rsatilgan mol-mulk narxi bilan bir xil bo'lishi lozim.

56. Mol-mulkning garovdan ozod qismini hisoblashda, ushbu mulk garovga taqdim etilgan kredit (*oldin ajratilgan va hozirda mavjud kredit*) ta'minot tarkibidagi mulkiy va nomulkiy garovlar taqsimotidan kelib chiqib hisob kitob qilinadi. Buni aniqlashda dastlab ushbu kredit ajratilishida/ma'qullanishida mulkiy va nomulkiy garovlar taqsimoti aniqlashtirilib olinadi, shundan so'ng navbatdagi garov sifatida taqdim etilishi kutilayotgan mulkning ozod qismi hisob kitob qilinadi. Buni quyidagi misollarda ko'rish mumkin:

1-misol:

ajratilgan kredit summasi: 100,0 mln.so'm;

bugungi kunda kredit qoldig'i: 70,0 mln.so'm;

kredit ta'minoti: 125,0 mln.so'm miqdorida transport vositasi;

garovdan ozod qism aniqlash formulasi: ta'minot summasi – kredit qoldig'i uchun zarur bo'lgan ta'minot summasi;

garovdan ozod qism hisob kitobi: $125,0 \text{ mln.so'm} - 70,0 \text{ mln.so'm} \cdot 125\% = 37,5 \text{ mln.so'm}$;

ushbu kredit ta'minotidagi transport vositasining garovdan ozod qismi 37,5 mln.so'mni tashkil etadi.

2- misol:

ajratilgan kredit summasi: 1 000,0 mln.so'm;

kredit ta'minoti:

800,0 mln.so'm miqdorida bino-inshoot – kredit qoplashi 80%;

450,0 mln.so'm miqdorida korxona kafilligi – kredit qoplashi 45%;

bugungi kunda kredit qoldig'i: 700,0 mln.so'm;

kredit qoldig'i uchun zarur bo'lgan ta'minot tarkibi:

560,0 mln.so'm miqdorida bino-inshoot – kredit qoplashi 80%;

315,0 mln.so'm miqdorida korxona kafilligi – kredit qoplashi 45%.

Mulkiy garovning ozod qismini aniqlash formulasi = binoning garovga olingan qiymati – kredit qoldig'iga nisbatan binoning qoplash qismi.

Mulkiy garovning ozod qismini hisob kitobi: $800,0 \text{ mln.so'm} - 560,0 \text{ mln.so'm} = 240,0 \text{ mln.so'm}$.

Ushbu kredit ta'minotidagi mulkiy garovning garovdan ozod qismi 240,0 mln.so'mni tashkil etadi.

Mulkiy garovning ozod qismi hisoblanayotgan kreditning (*olding ajratilgan va buguni kunda mavjud*) ta'minot tarkibida Tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash davlat jamg'armasi kafilligi mavjud bo'lsa, jamg'arma kafilligi evaziga mulkiy garovning ozod qismnini hisoblanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar dastlab kredit ajratilishida/ma'qullanishida asosiy ta'minot sifatida olingan mulkiy va nomulkiy garovlar miqdori kredit summasiga nisbatan 125 foizdan ortiq miqdorda qabul qilingan bo'lsa, ta'minot tarkibidagi garovlar taqsimotini hisoblashda mulkiy ta'minotlar to'liq garov bahosi miqdorida va nomulkiy ta'minot summasi esa kredit shatnomasi summasiga nisbatan 125 foizlik garov summasidan mulkiy garov bahosi chegirib tashlangan miqdorda hisobga olinadi.

57. Mol-mulk navbatdagi garov sifatida taqdim etilayotgan hamda uning garov olish qiymati dastlabki (*so'ngi*) olingan Bank bahosidan oshmasa (*amaldagi diskontlardan kelib chiqib*), ushbu mulk

bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilot hisoboti talab etilmasligi mumkin.

58. Mol-mulklar navbatdagi garov uchun olinishida ularning Bank bahosi mazkur Tartibning 4-ilovasida keltirilgan diskontlardan kelib chiqib belgilanadi.

59. Kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy risklarni oldini olish maqsadida, mulk(lar) navbatdagi garov sifatida quyidagi hollarda olinishi mumkin:

Bankning bazaviy tarmoqlari uchun ajratilgan kreditlar uchun taqdim etilgan mulklar, Bankning boshqa bazaviy tarmog'iga kredit ajratilishi yoki kreditlash xizmatining ta'minotiga o'zgartirish kiritilishi uchun navbatdagi ta'minot sifatida taqdim etilganda;

Ta'sischilar tarkibi bir bo'lgan korxonalarga ajratilgan kreditlar uchun taqdim etilgan mulklar, faqatgina ushbu korxonalarga kredit ajratilishi yoki kreditlash xizmatining ta'minotiga o'zgartirish kiritilishi uchun navbatdagi ta'minot sifatida taqdim etilganda. Bunda korxona yagona ta'sisчисiga ega bo'lib, mazkur yagona ta'sischi qo'shimcha tarzda o'z faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida amalga oshirsa ularning ta'sischilar tarkibi bir hil tarkibda deb hisoblanadi;

Yakka tartibdagi tadbirkorga ajratilgan kredit uchun ta'minot sifatida taqdim etilgan mulkni, aynan o'sha yakka tartibdagi tadbirkorga qo'shimcha kredit ajratish rejalashtirilgan hollarda garovga olinishida;

Bunda, ushbu Tartib tasdiqlangunga qadar ikki va undan ortiq qarzdorlarning (*ta'sischilar tarkibi har xil bo'lgan*) kreditlari uchun navbatdagi garov sifatida taqdim etilgan mulklar, ushbu qarzdorlarning mulklar taqdim etilgan kreditlari to'liq so'ndirilmagunga yoki faqat bitta kredit qarzdorligi qolguniga qadar boshqa kreditlar uchun navbatdagi garov sifatida taqdim etilmaydi.

7-bob. Kredit majburiyatlari to'liq bajarilgandan so'ng garovga olingan mulklarni garovdan ozod etish bilan bog'liq amaliyotlar

60. Kreditlash xizmati bo'yicha ta'minotlar majburiyatlar to'liq bajarilgandan so'ng (*Jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar, yuridik shaxslarga ajratilgan bank kafolati bo'yicha*) bekor qilinadi.

61. Kredit monitoringi va nazorati departamenti (keyingi o'rinlarda – Monitoring departamenti) ma'sul xodimi bank operatsiya kuni boshiga jismoniy va yuridik shaxslarga ko'char va ko'chmas mulk garovi ostida ajratilgan kredit xizmatlarining to'liq so'ndirilganligi yuzasidan kredit portfeli asosida solishtirma tekshiruvdan o'tkazadi.

Kredit xizmatlari bo'yicha majburiyatlari to'liq so'ndirilgan, jismoniy shaxslarga ajratilgan avtokreditlar, birlamchi ipoteka kreditlari bo'yicha bank tarmoqlari tomonidan www.garov.uz sayti orqali garovga olingan bo'lsa, Monitoring departamenti ma'sul xodimi tomonidan iABS dasturi orqali garov reyestri yozuvi o'chiriladi va saytdan garov taqiqi yechiladi;

Kredit xizmatlari bo'yicha majburiyatlari to'liq so'ndirilgan, jismoniy shaxslarga ajratilgan avtokreditlar, ipoteka kreditlari, mikroqarz va boshqa kreditlar, shuningdek yuridik shaxslarga ko'char va ko'chmas mulk garovi ostida ajratilgan kreditlar notarial tartibda, Hukumatning 2022-yil 22-avgustdagi 468-son qarori bilan tasdiqlangan "Boshqa shaxsga o'tkazish taqiqlab yoki xatlab qo'yilgan mol-mulk elektron ma'lumotlar bankini shakllantirish, yuritish va undan foydalanish to'g'risida"gi Nizomi hamda 2023-yil 27-noyabrdagi 626-sonli "Mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazishga qo'yilgan taqiqlarni (xatlovlarni) bekor qilish jarayonlarining soddalashtirilishi

munosabati bilan “Boshqa shaxsga o‘tkazish taqiqlab yoki xatlab qo‘yilgan mol-mulklar elektron ma‘lumotlar bankini shakllantirish, yuritish va undan foydalanish to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qarorlariga asosan 2019-yil 1-yanvar va undan keyin garovga olingan bo‘lsa, departament ma’sul xodimi tomonidan “CROBS” elektron Bank dasturining tegishli modulida notarial idoraga xat tayyorlanadi hamda Monitoring departamenti direktoriga tasdiqlash uchun yuboriladi. “CROBS” elektron Bank dasturi orqali Monitoring departamenti direktori tasdig‘i olingandan so‘ng, iABS dasturi orqali garov reyestridagi yozuvi o‘chirilib, Adliya vazirligining “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi bank.birdarcha.uz platformasi yoki iABS dasturi orqali garov taqiqi departament ma’sul xodimi tomonidan yechiladi.

62. Kredit majburiyatlari to‘liq so‘ndirilgan, jismoniy shaxslarga ajratilgan avtokreditlar, ipoteka kreditlari, mikroqarz va boshqa kreditlar, shuningdek yuridik shaxslarga ko‘char va ko‘chmas mulk garovi ostida ajratilgan kreditlar notarial tartibda 2019-yil 1-yanvar va undan oldin garovga olingan bo‘lsa, departament ma’sul xodimi tomonidan “CROBS” elektron Bank dasturining tegishli modulida notarial idoraga xat tayyorlanadi hamda Monitoring departamenti direktoriga tasdiqlash uchun yuboriladi. “CROBS” elektron Bank dasturi orqali Monitoring departamenti direktori tasdig‘i olingandan so‘ng, iABS dasturi orqali garov reyestridagi yozuvi o‘chiriladi.

8-bob. Kredit ta’minotini qisman ozod etish tartibi

63. Quyidagi hollarda kredit ta’minotlarini qisman garovdan ozod etish Monitoring departamenti vakolati doirasida amalga oshirilishi mumkin:

ajratilgan kreditning 70 foizidan kam bo‘lmagan qismi qarzdor tomonidan ixtiyoriy ravishda kredit shartnomasida belgilangan muddatlarda yoki muddatidan oldin qoplanganda;

kredit ta’minoti sifatida garovga taqdim etilgan mulkning garovga olish qiymati (bank bahosi) miqdorida pul mablag‘lari taqdim etilganda;

ta’minot sifatida kredit qarzdorligi va unga hisoblangan foizlarni qoplashga yetarli bo‘lgan likvidli mol-mulk garovi kredit qoldig‘ining 125% (*aloqador shaxslar uchun 130%, xorijiy valyutadagi kreditlar uchun 150%*)idan yuqorini tashkil etgan kreditlarning garovga olingan mulklarini qisman garovdan chiqarish;

mol-mulk garovi 125% (*aloqador shaxslar uchun 130%, xorijiy valyutadagi kreditlar uchun 150%*)idan yuqorini tashkil etgan kreditlar bo‘yicha ta’minot sifatida rasmiylashtirilgan kafilliklarni yoki sug‘urta polislarini ta’minotdan chiqarish (*kredit qarzdorliklari kafil hisobidan so‘ndirilib kelinayotgan holatlar bundan mustasno*);

kredit hisobiga sotib olingan transport vositalari hamda maxsus texnikalarni garovdan chiqarish (*Hukumat qarorlariga asosan maqsadli jamg‘armalar yoki boshqa manbalar hisobidan ajratilgan imtiyozli kreditlar bundan mustasno*).

64. Monitoring departamenti tomonidan mustaqil ko‘rib chiqilishi uchun qarzdor hamda unga ajratilgan kreditlar quyidagi talablarga javob berishi shart:

kreditlar shartlari qayta ko‘rib chiqilgan kreditlar toifasiga kirmagan bo‘lishi (*Hukumat qarorlariga asosan pandemiya va tabiiy ofatlar sababli shartlari qayta ko‘rib chiqilgan kreditlar bundan mustasno*);

Bank tizimida va boshqa banklarda muddati o‘tgan kredit qarzdorligi mavjud bo‘lmashligi;

kredit mablag'lari maqsadli ishlatilgan bo'lishi (*maqsadli ishlatilish talab etilmaydigan holatlar bundan mustasno*);

mijozning kredit tarixida 30 kundan oshgan muddati o'tgan qarzдорlik shakllanganlik holatlari 3 martadan ko'p bo'lmashligi;

kollegial organ qarori asosida belgilangan shartlarning to'liq bajarilganligi;

avvalgi olingan kreditlari bo'yicha 90 kundan oshgan muammoli qarzдорliklari yuzaga kelmaganligi yoki sud jarayonlari olib borilmaganligi;

ta'minot tarkibidan qisman ozod qilinayotgan mulk, ta'minotdan chiqarilmayotgan boshqa mol-mulklardan yuqori (likvidli) bo'lmashligi;

"Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJning kafilligi taqdim qilingan hollarda kredit shartnomada ko'rsatilgan garovni ta'minotdan chiqarishdan oldin "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJning roziligi olinishi lozim.

65. Monitoring departamenti vakolati doirasida kredit ta'minotini qisman ozod etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

mijoz tomonidan ta'minotni qisman ozod etish bo'yicha ariza taqdim etiladi;

bank tarmoqlaridagi Kredit monitoringi va nazorati xizmati (*keyingi o'rinlarda – Tarmoqlardagi monitoring xizmati*) xodimi mazkur Tartibning 63 va 64-bandlarida keltirilgan shartlarga asosan arizani o'rganadi hamda bank xizmatlari ofisi/markazi boshqaruvchisi imzosi bilan Monitoring departamentiga xizmat yozishmasi yuboradi;

Mazkur xizmat yozishmasi va unga ilova qilingan hujjatlarga asosan Monitoring departamentining mas'ul xodimi tomonidan xulosa tayyorlanadi;

xulosa Monitoring departamenti direktoriga taqdim etiladi va direktor tasdig'i olingandan so'ng kredit ta'minotlari tarkibidan chiqariladi.

66. Tegishli ruxsat olingandan so'ng, 2019-yil 1-yanvar va undan keyin garovga olingan bo'lsa departament ma'sul xodimi tomonidan "CROBS" elektron Bank dasturining tegishli modulida notarial idoraga xat tayyorlanadi hamda tasdiqlab berish uchun Monitoring departamenti direktoriga QR-Code orqali tasdiqlash uchun yuboriladi. "CROBS" elektron Bank dasturi orqali Monitoring departamenti direktori tasdig'i olingandan so'ng, iABS dasturi orqali garov reyestrtdagi yozuvi o'chirilib, Adliya vazirligining "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi bank.birdarcha.uz platformasi yoki iABS dasturi orqali garov taqiqi departament ma'sul xodimi tomonidan yechiladi.

2019-yil 1-yanvar va undan oldin garovga olingan bo'lsa, departament ma'sul xodimi tomonidan "CROBS" elektron Bank dasturining tegishli modulida notarial idoraga xat tayyorlanadi hamda Monitoring departamenti direktoriga QR-Code orqali tasdiqlash uchun yuboriladi. "CROBS" elektron Bank dasturi orqali Monitoring departamenti direktori tasdig'i olingandan so'ng, iABS dasturi orqali garov reyestrtdagi yozuvi o'chiriladi.

Garovga olingan mulklarni garovdan chiqarish Monitoring departamenti direktori (*ishda bo'lmagan vaqtlarda direktor o'rinbosarlari*)ning imzosi yoki QR-Code orqali amalga oshirilishi shart.

9-bob. Kredit ta'minoti tarkibiga o'zgartirish kiritish bilan bog'liq amaliyotlar

67. Monitoring departamenti tomonidan chakana, mikro va kichik biznes yo'nalishida kredit ta'minoti tarkibiga o'zgartirish kiritish quyidagi qoidalarga asosan amalga oshiriladi:

ta'minot tarkibidagi garovlarni qisman ozod qilish;

ta'minot tarkibidagi mol-mulklar yoki kafilliklar almashinishi.

68. Ta'minot tarkibiga o'zgartirish kiritilishda kredit bo'yicha dastlabki/so'ngi belgilangan mulkiy va nomulkiy garovlar nisbati o'zgarmasligi lozim (*Tadbirkorlik qo'llab quvvatlash davlat jamg'armasi kafilliklari bundan mustasno*).

69. Kredit ta'minot tarkibidagi garovlarni qisman ozod qilishda dastlab tegishli tarkibiy bo'linmalar tomonidan qarzdorning murojaati Bank Kredit siyosati va ushbu Tartib qoidalariga zid kelmasligi o'rganib chiqilishi lozim.

70. Kredit dastlabki shartiga o'zgartirish kiritish yuzasidan qarzdorning murojaati tarmoq mijoz bilan ishlovchi biznes menejer tomonidan o'rganib chiqiladi. Bunda, har bir murojaat qonunchilik hujjatlari, Bank Kredit siyosati va ushbu Tartib talablari asosida ko'rib chiqilishi lozim.

71. Mijoz bilan ishlovchi biznes menejer tomonidan mijozlarning kredit ta'minot tarkibini o'zgartirish yuzasidan qilgan har qanday yozma murojaatlarini qabul qilinishi va belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi shart. Murojaatlar elektron tarzda ham qabul qilinishi mumkin.

Agar, mijoz tomonidan bankka og'zaki, telefon orqali yoki elektron axborot vositalari orqali murojaat qilingan taqdirda, ushbu murojaatlarga Bank tomonidan ham og'zaki, telefon orqali yoki elektron axborot vositalari orqali javob qaytarilishi lozim.

72. Ta'minot tarkibidan mulkiy garovlarni qisman ozod qilishda dastlab mijoz bilan ishlovchi biznes menejer tomonidan ta'minot tarkibidagi barcha mulkiy garovlarni joyiga chiqqan holda o'rganiladi. Bunda ushbu garov ob'ektlari holati, dastlab kredit ajratilgunga qadar olingan fotosuratlar asosida solishtirilib, garov mulkiga ziyon yetkazilmaganligi tekshiriladi.

73. Murojaat Bank kredit siyosati va ushbu Tartib qoidalariga zid kelmagan taqdirda mazkur Tartibning 6-ilovasida keltirilgan namunaviy ariza suhbat o'tkazilgan holda mijoz bilan ishlovchi biznes menejer tomonidan rasmiylashtiriladi va o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olinadi.

74. Tarmoq rahbari ariza bilan tanishib chiqib, arizaga tanishuv belgisini qo'yadi (*tanishuv belgisi elektron tarzda ham bo'lishi mumkin*) hamda o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqish uchun Qarzdor segmentidan kelib chiqib mijoz bilan ishlovchi biznes menejer yo'naltiriladi.

75. Arizada ko'rsatilgan murojaatdan kelib chiqib, qarzdorga mazkur Tartibning 7-ilovasida keltirilgan taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yxati beriladi.

76. Ta'minot tarkibidagi garovlarni qisman ozod qilish va ta'minot tarkibidagi mol-mulklar yoki kafilliklar almashinishida mijozga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilar:

1) kreditlash xizmati bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzdorligi bo'lmasligi;

2) o'zaro aloqador korxonalarining "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida muddati o'tgan kredit qarzdorliklari mavjud bo'lmasligi;

3) 2-sonli kartoteka hisobvarag'ida qarzdorlik mavjud bo'lmasligi;

4) KATM onlayn ma'lumotnomasiga asosan mijozning barcha tijorat banklari hamda o'zaro aloqador korxonalarining "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" toifalarida tasniflangan joriy (amaldagi) kreditlari mavjud bo'lmasligi;

5) Oxirgi 12 oyda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida oydan oyga o‘tgan kredit bo‘yicha to‘lovlar (*asosiy qarz va/yoki foiz*) 2 martadan ko‘p bo‘lmasligi;

6) “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan asosiy qarzdorlik bo‘yicha oraliq hamda yakuniy to‘lov muddatini uzaytirish holatlari jami 2 tadan ko‘p bo‘lmasligi;

7) “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan kreditga hisoblangan foiz qarzdorligi bo‘yicha to‘lov muddatini uzaytirish holatlari jami 2 tadan ko‘p bo‘lmasligi;

8) “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan asosiy qarzdorlik bo‘yicha shartlari qayta ko‘rib chiqilgan hisobvaraqlarida qoldiq mavjud bo‘lmasligi;

9) “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida mavjud kreditlar bo‘yicha muddati uzaytirilgan foiz qarzdorliklari qoldig‘i mavjud bo‘lmasligi;

10) “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan kollegial organ tomonidan belgilangan shartlarini bajarmaslik holatlari mavjud bo‘lmasligi;

11) “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan maqsadsiz ishlatilganlik holatlari mavjud bo‘lmasligi lozim. (*Maqsadli ishlatilganlik yuzasidan tekshiruv tarmoqlardagi monitoring xizmati maqsadli ishlatilganlik to‘g‘risidagi dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi. Bunda kreditlar bo‘yicha maqsadli ishlatilganlik to‘g‘risidagi dalolatnoma muddati yetib kelmagan, mijoz yetkazib beruvchini xizmat/mahsulot yetkazib bermaganligi uchun uni sudga bergan hamda kredit mablag‘larini maqsadli ishlatilishini tekshirish lozim bo‘lmagan mahsulotlar orqali ajratilgan kreditlar bo‘yicha ushbu shart qo‘llanilmaydi*).

12) Mijozning Majburiy ijro byurosi tomonidan ochilgan ijro ishi bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan qarzdorliklari bo‘lmasligi lozim.

77. Qarzdorning murojaati va taqdim etilgan hujjatlardan kelib chiqib, mijoz bilan ishlovchi biznes menejer tomonidan mazkur Tartibning 8-ilovasida keltirilgan namunaviy shakldagi xulosa tayyorlanadi. Bunda, xulosalar mijoz bilan ishlovchi biznes menejer va Tarmoq rahbari tomonidan imzolanishi lozim (xulosa asoslantirilgan va ijobiy bo‘lishi shart).

78. Ta‘minot tarkibidagi mol-mulklar almashtirilishida, garov ob‘ekti o‘rniga taqdim etilayotgan mol-mulk mazkur Tartib qoidalariga asosan Baholash komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqiladi va baholash dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Bunda, Baholash komissiyasi tomonidan ta‘minotdagi mol-mulk narxi oshirilishi ko‘zda tutilgan hollar (narx oshirilishining asoslari ya‘ni qo‘shimcha qurilish qilinganligi, bozordagi narxning oshishi va b.) o‘rganilishi lozim.

79. Bank tarmog‘i tomonidan qarzdorning murojaati, mijoz bilan ishlovchi biznes menejering asoslantirilgan xulosasi va tegishli hujjatlar Monitoring departamentiga “iABS” dasturiy ta‘minoti orqali yuboriladi.

80. Monitoring departamenti tomonidan kreditning ta‘minot tarkibiga o‘zgartirish kiritish masalasi amaldagi Kredit siyosati ushbu Tartib va boshqa ichki qoidalar asosida o‘rganiladi hamda ta‘minot tarkibi o‘zgartirilayotgan kredit summasi 2,0 mln AQSH dollari ekvivalentigacha bo‘lgan kreditlar bo‘yicha ta‘minot tarkibiga o‘zgartirish kiritishga ruxsat beradi.

Ta'minot tarkibiga o'zgartirish kiritish bo'yicha mijoz murojaati va boshqa holatlar Tartibning 76-bandi talablariga mos kelmagan taqdirda, Monitoring departamenti tomonidan xulosa rasmiylashtiriladi va tegishli masalani Kredit qo'mitasi muhokamasiga kiritadi.

81. Monitoring departamenti kreditning dastlabki shartlariga o'zgartirish kiritish masalalari "iABS" dasturiy ta'minoti orqali taqdim etilgan skaner qilingan fayllar (hujjatlar) asosida o'rganiladi. Ushbu hujjatlarning va ulardagi imzolarning haqqoniyligi yuzasidan Monitoring departamenti javobgar hisoblanmaydi.

82. Monitoring departamenti yoki tegishli kollegial organ tomonidan mijoz arizasini rad etish haqida qaror qabul qilinganda, mijozga rad etishning asoslovchi sabablari ko'rsatilgan holda tarmoq rahbari tomonidan imzolangan yozma xabar beriladi.

83. Monitoring departamenti yoki tegishli kollegial organ qarori rasmiylashtirilgandan so'ng tarmoqlardagi monitoring xizmati tomonidan kredit hujjatlariga (kredit shartnomasi, ta'minot bilan bog'liq hujjatlar va b.) o'zgartirish kiritish ishlari amalga oshiriladi. Bunda ushbu hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq ishlar mijoz bilan ishlovchi biznes menejer tomonidan amalga oshiriladi.

84. Barcha rasmiylashtirilgan hujjatlar iABS dasturidagi shartlari o'zgartirilayotgan kreditlash xizmatiga kiritilishi lozim.

85. Qarzdorga nisbatan oxirgi 3 yilda kreditlash xizmatlari bo'yicha sudlarga (iqtisodiy) kiritilgan da'vo arizalari tekshiriladi. Bunda da'vo arizalari mavjud bo'lgan va qisman yoki to'liq qanoatlanirilgan taqdirda Monitoring departamenti so'rovnomani ko'rib chiqib rad etish huquqiga ega.

10-bob. Garov hujjatlarini rasmiylashtirish va ularni hisobini yuritish

86. Kredit ajratish to'g'risida qaror qabul qilib, tomonlar o'rtasida kredit shartnomasi imzolanganidan keyin, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Bank va qarz oluvchi/garovga qo'yuvchi o'rtasida garov/ipoteka shartnomalari rasmiylashtiriladi.

87. Kredit ta'minotga oid barcha shartnomalar amaldagi qonunchilik va Bank boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan "Kreditlash bilan bog'liq bo'lgan shartnomalarni tuzish bo'yicha Tavsiyalar"ga rioya qilgan va ularga ilova qilingan shartnomalarning namunaviy shakllaridan foydalangan holda tuzilishi lozim.

88. Pul mablag'lari garovga taqdim etilishi quyidagi 2 xil usulda amalga oshiriladi:

1) mablag' kredit ajratayotgan Bank tarmog'ida ochilgan maxsus blok hisobraqamga olib o'tiladi va omonat garov shartnomasi rasmiylashtiriladi. Bunda, ta'minotdagi pul mablag'lari kredit to'liq yopilmagunga qadar maxsus hisobraqamda saqlanishi lozim;

2) "O'zsanotqurilishbank" ATB maxsus hisob varaqlarida saqlanadigan depozit mablag'lari kreditning ta'minoti sifatida qabul qilinishi mumkin. Bunday hollarda, depozit shartnoma muddati kredit muddatidan kam bo'lmasligi, kredit muddatidan kam bo'lgan hollarda, uning muddati kredit muddatiga mutanosib ravishda uzaytirilishi hamda ushbu mablag'lar belgilangan tartibda garovga olingan (*garov shartnomasi imzolangan*) bo'lishi kerak.

Bunda, depozitdagi pul mablag'lari bo'yicha garov shartnomasi imzolanishi, kredit majburiyatlari bajarilmagan taqdirda, ushbu mablag'lardan akseptsiz undirish (*garovga oluvchi huquqlaridan foydalangan xolda*) kabilar garov shartnomasida yoritilishi kerak.

89. Qarz oluvchi va/yoki 3-shaxslar kredit bo'yicha garovda turgan o'zining va/yoki 3-shaxslarga tegishli depozitidagi (*omonatidagi*) mablag'larini kredit shartnomasi davrining xohlagan vaqtida depozit (*omonatning*) amal qilish muddatidan qat'iy nazar, mazkur kreditni (*qarzni*) qaytarish uchun yo'naltirish huquqiga ega.

90. Qoplangan kafolat uchun taqdim etilgan pul mablag'lari kafolat muddati tugagunga qadar maxsus hisobraqamda yoki omonat hisobraqamida saqlanadi. Bunda benefitsiar tomonidan kafolat majburiyati qisman kamaytirilganligi to'g'risida ma'lumotnoma taqdim etilsa, prinsipal murojaatidan kelib chiqib, ta'minotda turgan pul mablag'larining bir qismi egasiga qaytarilishi mumkin (*ta'minotda qoladigan pul mablag'lari kafolat summasi va kafolat uchun hisoblangan foiz qarzдорliklarini qoplashga yetarli bo'lishi lozim*).

91. Pul mablag'lari garovida, ushbu pul mablag'lari alohida "Boshqa majburiyatlar" balans hisob varag'iga kirim qilinadi va mijozning Bank oldidagi majburiyatlari to'liq bajarilgandan so'ng yoki majburiyat bekor qilinganda chiqim qilinishi mumkin.

92. Ko'chmas mulklar garovga taqdim etilishida quyidagi amaliyotlar bajarilishi lozim:

kredit ta'minotiga ko'chmas mulk garovga olingan hollarda, ipoteka shartnomasini notarial tartibda rasmiylashtirish (*bunday birlamchi bozordan sotib olinadigan ko'chmas mulk olish vaqtidagi ipoteka shartnoma mustasno*);

ipoteka shartnomasini (*shu jumladan Bank tomonidan ajratiladigan ipoteka krediti ta'minoti sifatida birlamchi va ikkilamchi bozordan sotib olinayotgan ko'chmas mulklarni kelajakda ta'minot sifatida tuziladigan garov (ipoteka) shartnomalarini ham*) kadastr organida davlat ro'yxatidan o'tkazish;

kadastr organidan *ipoteka shartnomasining* davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tekshirish maqsadida ko'chmas mulk ob'ektiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida davlat reyestrda ko'chirma olish;

ko'chirmaning 3-bandining tegishli ustunlariga ko'chmas mulkka nisbatan taqiq, xatlov yoki cheklovlar mavjudligi haqidagi yozuvlar kiritilishini (*masalan, ipoteka shartnomasi, qonun asosidagi ipoteka bo'yicha kredit shartnomasi sanasi, raqami va shu kabi*) talab qilish.

Ushbu amaliyotlar Operatsion departamenti kreditlarni rasmiylashtirish xizmati mas'ul xodimi tomonidan amalga oshiriladi

93. Notarial tartibda tasdiqlangan bitimlar (*ipoteka/garov*)ga qo'shimcha va tuzatishlar kiritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrdagi 726-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Notariuslar tomonidan mol-mulkni garovga (*ipotekaga*) qo'yish to'g'risida"gi shartlarni tasdiqlashning ma'muriy reglamentiga asosan amalga oshiriladi.

94. Kredit ta'minoti sifatida rasmiylashtirilgan garov, kafillik, sug'urta polisi bilan bog'liq hujjatlar hisobi ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'ida qabul qilingan ta'minot summasida kredit va foizlar to'liq so'ndirilgunga qadar yuritiladi (*ta'minot qisman ozod etilishi va/yoki almashtirilishi mustasno*). Bunda ular Kreditlash xizmati bo'yicha birinchi to'lovlar amalga oshirilgan (*kredit summasi ajratilgan*) kundan kechikmasdan tegishli hisobvaraqlarga kirim qilinishi shart.

95. Notarial tasdiqlanishi shart bo'lmagan bitimlar (*garov/ipoteka shartnomalari*) Bank xodimi (*vakili*) va taraflar ishtirokida imzolanishi va imzolar asli imzo namunasi (*fuqarolik pasporti va/yoki ishonchnomadagi*)ga o'xshagan bo'lishini tekshirish lozim.

96. Tarmoqlardagi monitoring xizmati mas'ul xodimi garov shartnomasining tegishli davlat organlaridan ro'yxatdan o'tkazilishi (*tasdiqlanishi*)ni tekshirishga mas'uldir. Shartnomalar davlat ro'yxatidan o'tkazilishi (*tasdiqlanishi*) shart qilib belgilangan hollarda, mijoz tomonidan shartnomalar belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan holatda Bankka taqdim etilishini ta'minlashi shart.

97. Transport vositalar, maxsus texniklar va ko'chmas mulklarni garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomalar tegishli davlat organlarida ro'yxatdan o'tkazilishi (*tasdiqlanishi*) shart.

98. Garov hujjatlari notarial idoralarda rasmiylashtirilgandan so'ng garov mulkiga kredit bo'yicha majburiyat to'liq bajarilgunga qadar taqiq qo'yiladi (*qisman garovdan ozod qilish bundan mustasno*) va bu taqiq tegishli davlat organlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

99. Tarmoqlardagi monitoring xizmati garov obyekti to'g'risidagi ma'lumotlarni Garov reyestriga to'liq kiritishi shart. Mazkur ma'lumotlar to'laqonli Garov reyestriga kiritilganligiga ishonch hosil qilish maqsadida www.garov.uz saytidan tekshirib ko'rilishi lozim.

100. Garovga taqdim etilgan mulkni taqiqdan chiqarish, kredit majburiyati to'liq bajarilgandan so'ng, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bundan garov qisman ozod etilishi va/yoki almashtirilishi mustasno.

101. Garov obyekti turidan qat'iy nazar kredit ta'minotlarining hisobi balansdan tashqari hisobvaraqlarida yuritiladi.

102. Ta'minotlar to'liq rasmiylashtirilgandan so'ng Mijoz menejerlari tomonidan qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga asosan kredit hamda uning ta'minoti bilan bog'liq hujjatlar kredit yig'ma jildi bilan birgalikda tarmoqlardagi monitoring xizmatiga topshiriladi.

Tarmoqlardagi monitoring xizmati xodimi tomonidan kredit va uning ta'minotiga tegishli hujjatlar (*garov, kafillik shartnomalari, kredit qaytmaslik sug'urtasi polisi, kredit shartnomalari, Bank kafolati shartnomalari*) asl nusxalari belgilangan tartibda kredit yig'ma jildiga tikiladi hamda majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar tarmoqlardagi monitoring xizmatida saqlanadi.

Kredit va uning ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlarning asl nusxalari temir, yonmaydigan shkaf(*seyy*)larda tarmoqlardagi monitoring xizmati xodimlari javobgarligi ostida saqlanadi.

Ushbu hujjatlarning elektron nusxalari belgilangan tartibda xizmatda foydalanish maqsadida iABS dasturiy ta'minoti "Anketa" moduliga yuklanishi shart.

Mazkur bosqichda, ya'ni Kreditlash xizmati (*kredit, lizing, faktoring, Bank kafolati*) bo'yicha tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgandan keyin ta'minot bilan bog'liq hujjatlar kredit yig'ma jildi bilan birgalikda Bank arxiviga topshiriladi.

103. Ta'minot rasmiylashtirishga doir barcha harakatlar (*shartnoma tuzish, garovga qo'yilayotgan mulkni sug'urtalash, notarial tasdiqlash, ipoteka va boshqa shartnomalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va boshqa ishlar*) Bank tomonidan kredit mablag'lari ajratilgunga qadar amalga oshirishi kerak.

104. Bank kredit shartnomasiga asosan, kredit bo'yicha qarzdorlik summasini to'lash majburiyati to'liq bajarilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur kredit bo'yicha:

garovda turgan mulkni taqiqdan chiqarish;

garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan Bankning huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reyestridan chiqarish choralarini ko'rishi shart.

105. Bank tomonidan garov egasini o'zgarishi uchun rozilik faqatgina quyidagi asosli holatlar bo'lganda beriladi:

a) garov obyektiga nisbatan mulk huquqi merosxo'rlarga o'tganda;

b) yuridik shaxs majburiy ravishda qayta tashkil etilgan/qo'shib olinishi natijasida huquqiy vorisga o'tganda.

106. Kredit ta'minoti sifatida taqdim etilgan ko'chmas mulklarning kadastr hujjatlariga tegishli o'zgartirish kiritish, ya'ni UZKAD tizimidan ro'yxatdan o'tkazish faqatgina ta'minot sifatida taqdim qilingan ko'chmas mulklarga taqiq saqlagan holda, 3 (uch) bank ish kunida kredit va garov shartnomasiga qo'shimcha kelishuv rasmiylashtirish sharti bilan ruxsat beriladi. Kadastr hujjatiga o'zgartirish kiritilganidan so'ng, tarmoqlardagi monitoring xizmati, garov reyestri va iABS dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi lozim;

Kredit ta'minoti sifatida taqdim etilgan ko'chmas mulklarning kadastr hujjatlariga tegishli o'zgartirish kiritish, ya'ni UZKAD tizimidan ro'yxatdan o'tkazishda ta'minot sifatida taqdim qilingan ko'chmas mulklarni taqiqini yechib turish talab etiladigan hollarda, yakuniy qaror qabul qilish tegishli kollegial organ muhokamasiga kiritiladi.

107. Garovga taqdim etilgan ko'chmas mulk hududida qo'shimcha qurilish ishlari amalga oshirmoqchi yoki oshirgan bo'lsa (*bank roziligi asosida*), ko'chmas mulkning kadastr hujjatiga tegishli o'zgartirish kiritilishiga rozilik berish o'rnatilgan tartibda tarmoqlardagi monitoring xizmati tomonidan garov ob'ekti joyiga chiqqan holda o'rganilgandan va haqiqatda qurilish ishlari amalga oshirilganligi ko'zdan kechirilgandan so'ng amalga oshiriladi.

Monitoring amalga oshirilgandan so'ng tarmoqlardagi monitoring xizmati tomonidan "CROBS" elektron dasturining tegishli modulida (mijoz arizasi, monitoring dalolatnomasi, qurilishdan oldingi va keyingi rasmlarni ilova qilgan holda) notarial idoralarga hamda kadastr bo'linmalariga taqiq saqlangan holda o'zgartirish kiritish lozimligi bo'yicha xat tayyorlanadi hamda Monitoring departamentiga QR-Code orqali tasdiqlash uchun yuboriladi.

Kadastr hujjatiga o'zgartirish kiritilgandan so'ng, kredit va garov shartnomasiga qo'shimcha kelishuv, garov reyestri va tegishli dasturga o'zgartirish kiritilishi lozim.

Garovga taqdim qilingan mulk bilan bog'liq boshqa holatlarda, xususan:

avtotransport vositasi davlat raqamini o'zgartirish

avtotransport vositasi yoqilg'i turini o'zgartirish munosabati bilan avtomototransport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomani (texpasport) o'zgartirish;

avtotransport vositasini boshqarish uchun ishonchnoma rasmiylashtirish;

mijoz faoliyatiga asosan (*litsenziyaga ega bo'lgan holatda*) avtotransport vositasini xorijga chiqib kelishida ruxsatnoma (*ishonchnoma*) rasmiylashtirish;

avtotransport vositasini ijaraga berish uchun ishonchnoma rasmiylashtirish;

ipoteka kreditlarida garovga qo'yilgan uyga yaqin qarindoshlarini ro'yxatdan o'tkazish masalalarida tarmoqlardagi monitoring xizmati tomonidan uch bank ish kuni ichida "CROBS" elektron Bank dasturining tegishli modulida tegishli idoraga taqiq saqlangan holda o'zgartirish kiritish mazmunida xat tayyorlanadi hamda Monitoring departamentiga QR-Code orqali tasdiqlash uchun

yuboriladi. Bunda tarmoqlardagi monitoring xizmati tomonidan murojaat kelib tushgan kunda mijozning muddati o'tgan kredit qarzdorligi bo'lmashligi tekshirilishi va garovdagi mulk hujjatlariga o'zgartirish kiritilganidan so'ng (*ishonchnoma rasmiylashtirish va doimiy ro'yxatdan o'tkazishdan tashqari*) garov shartnomasiga, garov reyestri va tegishli dasturga o'zgartirish kiritilishi lozim.

11-bob. Uchinchi shaxslar kafilligini ta'minot sifatida olinishi

108. Kredit ta'minoti sifatida to'lovga layoqatli va moliyaviy ishonchliligi o'rganilgan, doimiy pul mablag'lari oqimiga ega bo'lgan uchinchi shaxslarning solidar tartibdagi kafilliklari qabul qilinadi.

Kafillik ta'minot sifatida qabul qilinishida va kafillik shartnomasi tuzilishida, tarmoq bevosita kafilning o'zi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishi, ya'ni "o'zingni o'zing himoya qil" tamoyiliga rioya qilishi kerak.

Kreditlash xizmati ko'rsatilishi masalasi ko'rib chiqilishining boshlang'ich jarayonida, ya'ni mijozning buyurtma (*ariza*)siga ilova sifatida kafil bo'lishi rejalashtirilayotgan korxonaning kafil bo'lishiga roziligi bildirilgan va o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan (*firma blankasida, muhr bilan tasdiqlangan*) xati taqdim etilishi lozim.

109. Kafil korxonaning moliyaviy holatini o'rganishda quyidagilarga alohida etibor qaratilishi lozim:

Korxona sof aktivlari mavjudligiga, sof aktiv qaysi manbalar hisobiga shakllanganligi (*Bunda, sof aktiv faqat joriy aktivlardan tashkil topgan kafil korxonaning faoliyat joyiga chiqqan holda tovar moddiy zaxiralari mavjudligi mijozlar bilan ishlovchi menejer tomonidan o'rganilishi kerak*);

Boshqa banklardagi oxirgi 12 oylik hisobraqam aylanmasining yoyilmasi, hisobraqamga asosiy faoliyatdan tushum muntazam ravishda kuzatilayotganligi.

110. Yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritayotgan korxonaning kafilligi ta'minot sifatida qabul qilinayotganda, olinayotgan kafillik summasi kafil korxona sof aktivlarning 1.5 barobaridan oshib ketmasligi lozim (qo'shimcha ta'minot sifatida kollegial organlar qarori bilan qabul qilinadigan kafilliklar bundan mustasno).

Kafil korxonaning sof aktivlari quyidagicha hisoblanadi:

Sof aktivlar = jami aktivlar – jami majburiyatlar – boshqa kreditlar uchun taqdim etgan kafilliklar bo'yicha jami majburiyatlar qoldig'i.

111. Investitsion loyihalarda kredit ta'minoti sifatida yuridik shaxs sifatida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari kafilligi taqdim etilganda, kafil korxonaning asosiy faoliyatidan tushgan tushum kamida investitsion davrda qarz oluvchining foiz qarzdorligini qoplashga yetarli bo'lishi shart (qo'shimcha ta'minot sifatida kollegial organlar qarori bilan qabul qilinadigan kafilliklar bundan mustasno).

112. Kafillik shartnomasi Bank, qarz oluvchi va kafil tomonlar yozma shaklda tuziladi. Barcha kafillik shartnomalari amaldagi qonunchilik va Bank boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida kreditlash va kredit ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan shartnomalarni tuzish bo'yicha Tavsiyalar"ga ilova qilingan shartnomaning namunaviy shakllaridan foydalangan holda tuzilishi lozim.

12-bob. Kredit qaytarilmaslik xatarini sug'urta qilish

113. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 914-moddasiga muvofiq, sug'urta fuqaro yoki yuridik shaxs (*sug'urta qildiruvchi*) sug'urta tashkiloti (*sug'urtalovchi*) bilan tuziladigan mulkiy yoki shaxsiy sug'urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi 80-sonli qarorning 6-ilovasida Sug'urta faoliyati klassifikatori berilgan bo'lib, ta'minot sifatida kredit qaytmaslik xatari sug'urta polisi (14-klass) qabul qilinadi.

Bunda sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (*bankrotlik*) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (*nochorlikdan tashqari*) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi majburiyat hisoblanadi.

Bank tizimida kreditlash xizmatining ta'minoti sifatida sug'urta kompaniyalarini sug'urta polislarini olishda, avvalambor kompaniyani moliyaviy jihatdan barqarorligi, o'z zimmasiga olgan majburiyatni bajarish qobiliyatiga egaligini hamda sug'urta kompaniyasini bunday turdagi shartnomalarni imzolash vakolati mavjudligini o'rganish lozim.

Kreditlash xizmati ko'rsatilishi qarz oluvchi tomonidan so'ralayotgan kredit muddatiga mutanosib ravishda sug'urta qilinganligini tasdiqlovchi sug'urta polisi, sug'urta mukofotini to'liq to'langanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilingan holda taqdim etilgandan so'ng amalga oshiriladi.

Agarda kredit hisobiga sotib olinadigan asosiy vositalarni kredit ta'minoti sifatida garovga taqdim etish rejalashtirilayotgan bo'lsa, asosiy vositalar yetib kelgunga qadar vaqtinchalik sug'urta polisi (*14-klass*) olinib, asosiy vositalar olib kelinib belgilangan tartibda rasmiylashtirilgunga qadar bo'lgan muddatga sug'urta mukofoti to'lanishi mumkin.

114. Bank tarmoqlari, sug'urta kompaniyasi va qarzдор o'rtasida aniq majburiyatlar ko'rsatilgan holda, ajratilayotgan kredit muddatiga mutanosib ravishda sug'urta shartnomalari tuziladi. Sug'urta shartnomasi "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida kredit va kredit ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan shartnomalarni tuzish bo'yicha tavsiyalar"ga ilova qilingan namunaviy sug'urta shartnomasining loyihasidan foydalangan holda tuzilishi shart.

115. Sug'urta to'lovi oldindan taqdim etilayotgan sug'urta polisining butun amal qilish davriga o'tkazilishi shart. Qarz oluvchi tomonidan to'langan sug'urta to'lovlari tasdiqlovchi tegishli to'lov hujjatlari nusxasi olinishi va kredit yig'ma jildiga tikib borilishi kerak.

13-bob. Yakuniy qoidalar

116. Ushbu tartib Bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

117. Mazkur Tartib talablarini buzgan Bank xodimlari amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

118. Bank xodimlari ushbu Tartib bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilishdan o'zini tiyishi lozim, jumladan:

korrupsion harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan Bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qiladi;

jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar beradi.

119. Bank xodimlari manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni talablariga qat'iy rioya qilishlari shart.

120. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish kiritilishi natijasida, mazkur Tartibning alohida normalari bir-biriga zid bo'lib qolgan taqdirda, uning normalari amalda bo'lgan qonun normalariga muvofiqlashtirilgunga qadar vaqtincha o'z kuchini yo'qotadi.

121. Mazkur Tartib tasdiqlanishi munosabati bilan Bank boshqaruvining 2023-yil 10-iyuldagi 138-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida kredit ta'minoti bilan ishlash tartibi va unga kiritilgan o'zgartirishlar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

Risk bosh direktori:



S. Ismagilov

№ 102

2025 yil «18» «mart»

kelishuvchilar: A.A. Mananov, A. Rustamov, G. Xakimov, O. Toshev, Sh. Sh. Shaaxmedov, S. Sanjarov, V. Sergeev, S. Eshmuradov, A. Omonov, A. Yoqubjonov, D. Mamadaliyev, D. Xujayev, A. Tolibov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=qH19gX15&id=a37540d8-c8de-4cff-a04e-33b7ca460158>

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
tizimida kredit ta’minoti bilan
ishlash Tartibi”ga 1-ilova**

**Bank tizimida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan ta’minot turlarining
kengaytirilgan shakli**

Klassifikatsiya	Turlari	Garov obyekti
Mol-mulk	Ko‘chmas mulk obyekti	Er maydonlarini (<i>bog‘, uzumzor va boshqalar</i>)
		Uy-joy
		Noturar bino va inshootlar (<i>savdo do‘konlari, mehmonxonalar, i/ch sexlari, omborxonalar, ofis binolari va boshqalar turdagi noturar bino inshootlar</i>)
		Qurilish tugallangan issiqxona bino inshootlari
	Avtotransport vositalari	Tartibning 3 bandida tushuncha berilgan avtotransport vositasi
	Maxsus texnika vositalari	Tartibning 3 bandida tushuncha berilgan maxsus texnika vositasi
	Yaxlit ishlab chiqarish liniyalari ko‘rinishidagi, alohida ravishda daromad keltiradigan texnologik uskunalar	Ishlab chiqarish uskunalari
		Tibbiyot uskunalari
		Sanoat sohasida foydalaniladigan kompyuter texnologiyalari
	Tovar moddiy boyliklar	Tayyor mahsulot, xom-ashyo va materiallar
Moliyaviy instrumentlar	Depozitlar	Milliy va xorijiy valyutadagi depozitlar
	Qimmatli qog‘ozlar	Davlatning obligatsiyalari
		Aksiyalar (<i>fond birjasida kotirovka qilinadigan</i>)
		Korxonaning kelajakdagi pul tushumlari
Uchinchi shaxs majburiyatlari		Hukumat, tijorat banklari kafolatlari va sug‘urta kompaniyalarining kredit qaytmaslik xatari sug‘urta polisi
		Kredit qaytmaslik riski sug‘urtalash polisi
		Yuridik shaxs maqomiga ega va ega bo‘lmagan tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslar kafilligi
		“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ va boshqa jamg‘armalarning kafilliklari

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
tizimida kredit ta’minoti bilan
ishlash Tartibi”ga
2-ilova

Baholash komissiyasi tarkibi:

Mijoz segmenti	1-toifali Bank xizmatlari ofisida	1-toifali Bank xizmatlari markazida	2-toifali Bank xizmatlar markazida
Jismoniy shaxslar uchun	1.Mijoz-menejeri;	1. Mijoz-menejeri;	1.Mijoz-menejeri;
So‘ralayotgan kredit summasi 1,0 mln.AQSH dollari ekvivalentigacha bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari uchun	1. Bank xizmatlari ofisi boshqaruvchisi o‘rinbosari; 2. Mijoz bilan ishlovchi biznes-menejeri yoki Agrosanoat klasterlarini moliyalashtirishni muvofiqlashtirish departamentining hududlardagi mas’ul xodimi;	1. Bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi o‘rinbosari; 2. Mijoz bilan ishlovchi biznes-menejeri yoki Agrosanoat klasterlarini moliyalashtirishni muvofiqlashtirish departamentining hududlardagi mas’ul xodimi;	Mijoz bilan ishlovchi Markaz rahbari (biznes-menejer) va biznes menejer (mavjud hollarda)
So‘ralayotgan kredit summasi 1,0 mln.AQSH dollari ekvivalentidan yuqori bo‘lgan bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari uchun	1. Bank xizmatlari ofisi boshqaruvchisi; 2. Bank xizmatlari ofisi boshqaruvchisi o‘rinbosari; 3. Mijoz bilan ishlovchi biznes-menejeri yoki Agrosanoat klasterlarini moliyalashtirishni muvofiqlashtirish departamentining hududlardagi mas’ul xodimi.	1. Bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi; 2. Bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi o‘rinbosari; 3. Mijoz bilan ishlovchi biznes-menejeri yoki Agrosanoat klasterlarini moliyalashtirishni muvofiqlashtirish departamentining hududlardagi mas’ul xodimi;	Mijoz bilan ishlovchi Markaz rahbari (biznes-menejer) va biznes menejer (mavjud hollarda)

Agarda baholash komissiyasi a’zosi ishda bo‘lmaganda baholash dalolatnomasi uning vazifasi yuklatilgan shaxs tomonidan imzolanadi.

Korporativ biznes subyektlariga ajratiladigan kreditlar uchun baholash komissiyasi tarkibi Korporativ markaz rahbari buyrug‘iga asosan tayinlanadi.

O‘rta biznes subyektlariga ajratiladigan kreditlar uchun baholash komissiyasi tarkibi tegishli blok rahbari/Bank Boshqaruvi Raisi o‘rinbosari/ O‘rta biznes bank xizmatlari markazi rahbari buyrug‘i/farmoyishiga asosan tayinlanadi.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
tizimida kredit ta’minoti bilan ishlash
Tartibi”ga
3-ilova



GAROV BAHOSINI KELISHISH DALOLATNOMASI

1	Baholash o'tkazilgan sana	15.01.2025
2	Baholash o'tkazilgan joy	Toshkent shahar
3	Xizmat ko'rsatuvchi BXM/BXO	Rakat BXM
4	Qarz oluvchi	"A" MCHJ
5	Kredit summasining nominal qiymati	100 000 000
6	Kredit valyutasi	UZS
7	Kredit summasining ekvivalentdagi qiymati	100 000 000
8	Talab qilinadigan garov summasi	125 000 000
9	Taqdim etilayotgan garov summasi	125 000 000
10	Garovning kreditni qoplashi	125%

MUSTAQIL BAHOLASH, TAVSIYAVIY XULOSADAGI VA BANK BILAN KELISHILGAN QIYMAT

№	Mustaqil baholovchi tashkilot nomi	Mustaqil baholash qiymati (so'm)	Boshqa mustaqil baholovchining tavsiyaviy qiymati (so'm)	Bank tomonidan qabul qilinadigan qiymat (so'm)	Navbatdagi garovning ozod qismi (agar mavjud bo'lsa)	Qo'llanilgan diskont, %	Kredit qoplanishi, %
1							
2							
3							
	JAMI:	0	0	0	0		

IZOH: Garov obyekti/obyektlari ushbu hujjatni imzolovchi shaxslar tomonidan joyiga chiqqan holda vizual ko'rigi amalga oshirildi.

Garovga oluvchi: Rakat BXM

Rakat BXM boshqaruvchisi: _____ Aliev V.A.

Rakat BXM boshqaruvchisi o'rinbosari _____ Aliev V.A.

Mijoz bilan ishlovchi biznes menejer _____ Aliev V.A.

Qarz oluvchi: "A" MCHJ

Direktor _____ Aliev V.A.

Garov egasi: "B" MCHJ

Direktor _____ Valiev A.A.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
tizimida kredit ta’minoti bilan ishlash
Tartibi”ga
4-ilova

Garov obyektining garov qiymatini yetarliligini belgilash bo‘yicha diskont miqdori

Ta’minot turi	Kredit muddati:		
	18 oygacha (18-oy ham hisoblanadi)	18 oydan 60 oygacha (60-oy ham hisoblanadi)	60 oydan ortiq
Er maydonlarini (bog‘, uzumzor va boshqalar) foydalanish huquqi (ijara)	Mustaqil baholovchi hisobotidan/konsalting xulosa qiymatidan kelib chiqib		
	50% gacha	50% gacha	50% gacha
Ko‘chmas mulklar			
Uy-joy/xonadon	Mustaqil baholovchi hisobotidan/konsalting xulosa qiymatidan kelib chiqib		
	80 % gacha	80 % gacha	80% gacha
Ipoteka kredit hisobiga sotib olingan uy-joy/xonadon	Oldi-sotdi shartnoma qiymatidan kelib chiqib		
	100%gacha	100%gacha	100%gacha
Noturar bino-inshootlar	Mustaqil baholovchi hisobotidan/konsalting xulosa qiymatidan kelib chiqib		
	80 % gacha	75% gacha	70% gacha
Bank krediti hisobiga sotib olingan noturar bino inshootlar	Oldi-sotdi shartnoma qiymatidan kelib chiqib		
	80 % gacha	75% gacha	70% gacha
Issiqxona majmualari	Mustaqil baholovchi hisobotidan/konsalting xulosa qiymatidan kelib chiqib		
	70% gacha	60% gacha	50% gacha
Uskunalar			
Ishlab chiqarilganiga 2 yildan oshmagan yaxlit ishlab chiqarish liniyalari ko‘rinishidagi, alohida ravishda daromad keltiradigan texnologik uskunalar	Mustaqil baholovchi hisobotidan/konsalting xulosa qiymatidan kelib chiqib		
	60% gacha	50% gacha	40% gacha
